1041 yilda. Ya'ni knyaz Brjetislav I zamonida (1034-1055) Chexiya knyazi bilan Germaniya imperiyasi urtasida shunday munosabat urnatildiki, Chexiya knyazi Germaniya imperiyasiga vassal bulib keldi. Knyazlarning zodagonlarga karshi olib borgan kurashi Germaniya imperiyasi Chexiyaning ichki ishlariga aralashuviga imkon berdi. Lekin Germaniya imperatorlari xam mustaxkamlanib olgan Chexiya knyazi bilan ittifokda bulishga muxtoj edilar. Shuning uchun Chexiya knyazi Germaniyaning bosh gertsoglari orasida aloxida mavkega ega edi. 1086 yilda imperator Genrix IV knyaz Bratislav II ga (1061-1092) korollik unvoni berdi.

Chexiya korollikka aylandi, biroq imperiya sistemasida kolaverdi. Bu vaktida eski lex zodagonlarining kuchi butunlay sindirilgan edi. Ularning urnini xizmat axli bulgan erdor yangi zodagonlar oldi, bular korol xokimiyati bilan mustaxkam alokada bulib, bu vaktida anchagina feodallashib kolgan edilar. Garbiy Evropaning xuddi markazida joylashgan urta asr Chexiya davlati sunggi yuz yilliklarda juda tez rivojlandi. Birok chex xalki usib, ulgaygan sari uning germanlar ta'siri bilan kelisha olmasligi mukarrar ravishda namoyon bulgan edi, bu ziddiyatlar negizida Chexiyaning Germaniyadan siyosiy karamligi yotar edi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

- 1.
- 2.
- 3.

Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.
- 2.

ADABIYOTLAR.

- 1.SEMENOV V.F. O`rta asrlar tarixi. T.1973.
- 2.KURBANGALIEVA R.S. O`rta asrlar tarixidan uquv metodik qo`llanma. M.1980.
- 3.Xrestomatiya po istorii srednix vekov.(pod.red. S.D.Skazkina M 1961-63 t.1-3)
- 4.SAPRIGIN Yu.M. Istoriia srednix vekov. M.1971.
- 5.VOZNIKOVSKIY Evropa (sost. Korsunskiy A.R. Izd-vo MGU, 1978.)

4.MAVZU: VI- XI ASRLARDA JANUBIY SLAVYANLAR. (2-soat)

Reja:

- 1.VI- VI asrlarda janubiy slavyanlarning xujaligi va ijtimoiy tuzilishi .
- 2.Bolgariya podsholigining tashkil topishi .
- 3.Janubiy slavyanlarning Vizantiya bilan munosabatlari .
- 4.Janubiy slavyanlar madaniyati.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Darsning maqsadi:

VII asrda Bolkon yarim orolining shimoli–sharkida vujudga kelgan Bolgariya davlati uz tarakkiyotida ikki boskichni bosib utdi. Dastlab, ya'ni VII asrning birinchi yarmida Dunayning janubida yashovchi Dunay buyi slavyanlari deb atalgan ettita slavyan kabilasining xiyla katta bir ittifoki vujudga keldi; aftidan, yana bir slavyan kabilasi-Dunayning shimolida Transilvaniya chegaralarida yashagan shimolliklar (severyanlar) kabilasi xam bular bilan boglangan bulsa kerak Slavyanlarning Dunay ittifoki Bolkon yarim oroliniing narigi cheti bilan berigi chetidagi dushmanlarga-shimolda avarlarga va janubda Vizantiyaga karshi kattik kurash olib bordi.

Taxminan xuddi shu vaktlarda, ya'ni VII asrning birinchi yarmida Dunayga Azov buyidan yangi kabila – bolgarlar keldi ; bular slavyanlar bulmay tiliga karaganda kandaydir bir turk yuki prototurk kabilalariga mansub edi. Bolgarlarning Dunay buyiga, sungra esa bevosita Bolkon yarim oroli territoriyasiga kelib joylashuvi Dunay buyi slavyanlari ittifokining bundan keyingi rivojida katta axamiyatga ega buldi.

VI asrlarning oxirlari bilan VII asr boshlarida Bolqon yarim orolida slavyanlarning yana bir birlashmasi-slavyan kabilalarining Makedoniya ittifoki yoki Sklaviniya, ya'ni "slavyanlar edi" degan birlashma bular edi. Bu ittifoqni Vizantiya tor-mor keltirdi; unga qirgan slavyan kabilalari imperiya fuqarosi bo`lib qoldilar, ammo xali IX-X asrlarda uzlarining tili va urf-odatlarini saqlab kolgan edilar.

2.Bolgar kabilalarini yana bir kismi xuddi shu vaktida Volga va Kama buyiga kelib joylashib, bu erda Kama bolgarlari davlatini tashkil kildi, bu davlat bizga kadimgi tarixdan ma'lum.

Bolgar xoni Asparux Dunay ittifokining knyazlari bilan maxsus shartnomalar tuzib, (bu shartnomaga muvofik bolgarlar bilan slavyanlarga tegishli territoriyalar ajratib beriladigan bulgan edi), uz drujinasi va fukarolarining bir kismi bilan birlikda 679 yilda (yoki yana boshka taxminga karaganda 681 yilda) Bolkon yarim orolining Dunaydan janubdagi territoriyasiga kuchib kelib joylashdi. Usha vaktida yuz bergan vaziyatga karaganda, bolgarlar bu erga istilochi sifatida emas, balki umumiy dushman-avarlar va vizantiyaliklarga karshi kurashda Dunay slavyanlariga ittifokchi bulib keldilar. Ammo bu ittifokda kelgindi bolgar kabilalari slavyanlardan ustun bulib olganligi uchun mamlakat xam bolgarlar nomi bilan ataladigan buldi.

Asparux Vizantiya imperatori Konstantin IV bilan bolgarlar va slavyanlar uchun foydali shartnoma tuzishga muvaffak buldi, bu shartnomaga muvofik, Vizantiya imperiyasi Bolkondan kattagina bir kism erni birlashgan “varvarlar”ga beradigan buldi. Asparux yangi bolgar-slavyan davlatining bosh knyazi buldi, unga bu erda kolgan maxalliy slavyan knyazlari buysunardilar. Slavyan axolisi Asparux va uning urugi Dulo foydasiga xiroj tulashi lozim edi. Yangi davlatning poytaxti avvaliga Pliska shaxri, keyinchalik esa Preslava shaxri buldi.

VIII asrda Asparuxning vorisi davrida bolgarlar endi Vizantiyaning ichki ishlariga aralashadigan bulib koldi. Bolkon tog tizmalarining janubidan yangi erlar oldi. VIII va IX asrlar davomida slavyanlar bilan bolgarlar juda tez yakinlashib ketdilar, bolgarlar slavyanlardan dexkonchilikni, xunarmandchilikni, slavyan dini va urf-odatlarini, xattoki tilini xam uzlashtirib oldilar. Feodal munosabatlar tarkib topa borgan sari erli slavyan va kelgindi bolgar zodagonlari bitta xukmron sinf bulib kushilib ketdi.

IX asrning boshlaridayok Bolgariya juda katta bir davlatga aylandi. Kudratli xon Krum xukmronlik kilgan vaktida (802-815) Bolgariya podsholigi sostaviga xozirgi Bolgariyadan tashkari, yana xozirgi Ruminiya xamda Vengriyaning katta bir kismi (Tisa daryosining janubidagi kismi) kirgan edi. Krum zamonida Bolgariyaning erlari garbda Sava va Tisa daryolari buylab bevosita Karl Buyuk imperiyasi bilan chegaradosh edi. Bolgariya IX asrning ikkinchi yarmida knyaz Boris (852-888) zamonida kengayib bordi. Boris zamonida bolgarlar (sharkdan kelganlarning avlodlari xam) Vizantiyadan xristianlikni kabul kildi. IX asrda dastlab bir-biriga yot bulgan ikki element-bolgarlar va slavyanlar bir-biri bilan shu kadar yakinlashib ketdiki, “bolgarin” degan nom vizantiyaliklar bilan ruslar nazarida xakikiy slavyan degan ma'noga ega bulib koldi. Son jixatdan birmuncha ozchilikni tashkil etgan kelgindi bolgarlar maxalliy axoliga aralashib ketdi, slavyan tilini tula uzlashtirib oldi. Xristianlikning kabul kilinishi ikkala kabila elementining bu kushilish protsessini ideologik jixatdan tugalladi.

Vizantiya Bolgariyadagi sotsial ziddiyatlarning kuchayishidan foydalanib, X asrning urtalaridan kat'iy xujumga utdi. Bir vaktlar Vizantiya Kiev knyazi Svyatoslavni yordamga chakirgan edi. Svyatoslav Bolgariyaga ikki marta (968-696 va 969-971 yillarda) yurish kildi, bu yurishlar natijasida Dunayda uz xokimiyatini urnatdi.

Svyatoslav bolgar feodallarini tor-mor keltirib, Filippol (xozirgi Plovdiv shaxri) ustiga yurish kilib, kurolini Vizantiyaning uziga karshi karatganda (shuni aytish kerakki, uning kushinida bolgarlar xam bor edi.) Ioann Simisxiy katta kushin bilan unga karshi chikdi xamda rus va bolgarlarni orkaga, shimolga sikib chikardi; keyinchalik u Svyatoslavni Bolgariyaning uzidan xam sikib chikarishga muvaffak buldi. Svyatoslav chikib ketgandan keyin Simisxiy Bolgariya podsholigining katta kismini- sharkiy Bolgariya deb ataladigan kismini Preslavdagi poytaxti bilan birga ishgol kilib, uni Vizantiyaga kushib oldi. Istilo kilinmay kolgan Garbiy Bolgariyani markazi Oxrid shaxri bilan Vasiliy II Bolgarboytsa (Bolgarkesar) uziga buysundirdi. (Bolgarboytsa–bolgarcha “bolgar kotili“ degandir); Vasiliy II bu lakabni bolgarlarga kilgan shafkatsizligi uchun olgan edi. U 1014 yilda uzi uchun muvaffakiyatli tugagan jangdan keyin asir olingan 15 ming bolgarning kuzini uyishga buyruk berdi. Bolgar podsholigi 1018 yilda batamom tugadi. Shu vaktidan boshlab Bolgariya uzok vaktgacha – deyarli XII asrning oxirigacha Vizantiya asoratiga tushib koldi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

- 1.
- 2.

Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.
- 2.

ADABIYOTLAR.

- 1.SEMENOV V.F. Urta asrlar tarixi. T.1973.
- 2.KURBANGALIEVA R.S. Urta asrlar tarixidan ukuv metodik kullanna. M.1980.
- 3.Xrestomatiya po istorii srednix vekov.(pod.red. S.D.Skazkina M 1961-63 t.1-3)
- 4.KOLENSKIY N.F. Feodalnoe gosudarstvo (V- XV vv.) M.1967.
- 5.LITAVRIN G.G. Bolgariya i Vizantiya v XI-XII vv. M.1960 g.
- 6.MOSAKLENKO A.E. Vozniknovenie i razvitie feodalnix otnosheniy u yujnix slavyan. Izd-vo MGU , 1978.

5.MAVZU: FRANKLAR DAVLATI.

(2-soat)

Reja:

- 1.Franklarning xo`jaligi va ijtimoiy tuzilishi .
- 2.Xlodvig istilosi.Franklar davlatining tashkil topishi.
- 3.Karolinglarning frank monarxiyasi..

Tayanch tushuncha va iboralar:

Darsning maqsadi:

Franklarning V asr oxiri- VI asr boshlaridagi ijtimoiy tuzumi «Sali xakikati» franklarning sud soxasidagi rasm-koidalarini tuplami bulib, Xlodvig zamonida, uning podsholigining oxirlarida (500 yilga yaqin) yozilgan bulsa kerak. «Sali xakikatiga» asoslanib turib, franklarning asosiy mashguloti dexkonchilik bulgan, degan xulosaga kelish mumkin. «Sali xakikati»dagi bir kancha moddalar erkin franklarning ekin erlari, turli xildagi dexkonchilik kurollari, ish xayvonlari bulganligidan, boshokli usimliklar etishtirganligidan dalolat beradi.

Ularning xujaligida chorvachilik (ayniksa chuchka bokish) xam katta rol o`ynagan. « Sali xakikati» da yana balikchilik, asalarichilik, bogdorchilik va dexkonchilikka oid bulgan asosiy xunarlar tugrisida xam gapiriladi. Unda dexkonning xovlisi va bu xovlidagi xar turli xujalik binolari, asbob-uskunalar tula tasvirlab berilgan. Jamoa a'zosi bulgan frank dexkonlari shaxsiy mulk tarzida tomorka erga ega bulganlar, jamoaga karashli bulgan dalada ma'lum uchastkalarini ishlaganlar, jamoaga karashli keng urmonlar va yaylovlardan birgalikda foydalanarlar. «Sali xakikati»da erni sotish va sotib olish tugrisida, uni birovga in'om kilish yoki vasiyatga muvofik boshka kishiga topshirish tugrisida xech narsa deyilmaydi. Xakikatda franklarda usha vaktida er xususiy mulk emas edi. Er jamoa tashkilotining mulki bulib, ayrim frank uz er uchastkasidan ma'lum shartlar asosida foydalanardi, xolos. Xosil yigib olingandan sung dalalarda xamma birgalikda mol bokardi.

«Sali xakikati»da urmon va yaylovdan, suvdan birgalikda foydalanish xakida gapirilgan moddalar bor. Kishlok jamoasi (marka) bu manbaga kura, uz xayotining ilk boskichidan xali mutlako urugchilik tuzumiga xos bulgan belgilarga ega edi. «Sali xakikati»ga kura urug jamoaga karashli erlarning asosiy egasi bulish bilan birga, yana siyosiy tashkilot xam edi. Urug a'zolarining xammasi kafillikda katnashardi, ya'ni sudda aybdor karindoshi uchun

kafolat berardi. Kotillik uchun tulanadigan xunning (vergeldning) fakat bir kisminigina kotilning oilasi tular edi. Buni urug a'zolari xam tulashi lozim edi. Shuningdek vergeld xam uldirilgan odamning oilasi bilan urugi urtasida taksimlanardi. Er yrugdan tashkariga chikib ketmasin uchun erni ayollarga berish yoki koldirish takiklangan edi. Farzandsiz frank ulsa, uning eri aka-ukalariga va uzining urugidagi boshka erkak karindoshlariga utar edi.

Birok «Sali xakikati» urugchilk tuzumining emirila boshlaganligidan xam dalolat beradi. Vorisli va kafolat xukukidan voz kechib, urugdan chikish mumkin edi. Franklar sotsial va mulkiy bulinish (tabakalanish) ochik kurinib turardi. Birinchi urinda korol drujinachilari turardi, bularning vergeldi (xuni) 600 solid belgilangan edi. Oddiy erkin frankning joni uchun fakat 200 solid vergeld tulanar edi. Yarim erkin kishining –litning-vergeldi esa 100 solid edi. Kulni uldirganlik uchun kuldorga 30 solid tulanardi, ya'ni urushda miniladigan otni ugirlaganlik uchun kancha tulansa, kul uchun xam ushancha tulanardi. Shunisi xarakterliki, rimlikni uldirganlik uchun tulanadigan vergeld franknikidan ancha kam edi.

Yirik pomestelar bulgan-bulmaganligi «Sali xakikati»da ochik aytilmagan. Lekin, ba'zi bir alomatlarga (xonaki xunarmandlar sonining ruyxatiga kullar sonining juda kupchiligi va boshkalarga) karab fikr yuritganda, V-VI asrlardayok erkin frank kishlogi bilan bir katorda er egalarning pomestelari xam bulgan. Katta er egalari korolning uzi, uning drujinachilari, yukori tabaka ruxoniylari va kisman erlarni saklab kolgan xamda saroy axliga yakin bulgan («Sali xakikati»da aytilishicha, «korolning xamtovoklari» bulgan) rimlik er egalari edi. Shunday bulishiga karamay, bu davrdagi frank jamiyatida asosiy figura erkin frank edi, u kishlok jamoasining tula xukukli a'zosi, jamoa erining egasi, yirik er egasiga karam bulmagan, mustakil bulgan erkin dexkon edi. F.Engels feodalizmdan oldingi frank kishlogining uziga xos axvolda bulganligini kayd kilib, «Erkin frank dexkoni rim koloni bilan yangi krepostnoy urtasidagi figura edi» deb yozgan edi.

2.Xlodvigning podsholik tarixi (481-511) episkop Grigoriy Turskiyning «Franklar tarixi» degan kitobida mufassal bayon kilingan bulib, Turskiy bu kitobni ancha keyinrok, VI asrning ikkinchi yarmida yozgan. Franklar xayotida ruy bergan katta-katta vokealar Xlodvig nomi bilan boglangandir. Xlodvig 486 yilda butun shimoliy Galliyani istilo kildi. Rimning bu oblasti xali varvarlar tomonidan zabt etilmagan bulib, Rim imperiyasi kulagandan keyin Shimoliy Galliyaning amalda koroli bulib kolgan Siagriy degan rimlik bir maxalliy magnat tomonidan idora kilinar edi, bu oblastning markazi Parij Siagriy franklarga sal bulsa-da, jiddiy bir karshilik kursata olmadi. Suasson shaxriga yakin joyda kat'iy buldi. Rim kushini franklar tomonidan tor-mor etildi. Siagriy vestgotlar koroli xuzuriga kochdi, lekin vestgotlar koroli uni Xlodvigga tutib berdi. Xlodvig asirni uldirishga buyruk berdi.

Katta va muxim bir territoriyani–Sena va Luara daryolari xavzasini zabt etib olib, Xlodvig franklarga juda mul-kul er bulib berish imkoniga ega buldi. Daryolari juda kup, eri serxosil, dexkonchilik uchun kulay bukzor va kayinzor urmonlarga boy bulgan keng, lekin rimliklar vaktida xuvillab kolgan bu rayonga boshdan oyok franklar kuchib keldi. Bu rayonga kuchib joylashgan franklar soni xali Reynning narigi tomonida yashab kelayotgan franklar ichida yana axyon-axyonda kuchib kelib turgan kishilar xisobiga kupayib bordi. Xlodvig uz podsholigining oxirgi davrida Luaraning janubiga ancha siljib borib, Goronna daryosigacha etdi. Vestgotlar Galliyaning janubidagi erlardan bir oz kisminigina saklab koldi, xolos. Xlodvig, Burgundiyani xam bosib olishga xarakat kildi, lekin bu maksadini amalga oshirmadi, burgund koroli saroyiga uz ta'sirini utkazish bilangina cheklanib kuya koldi.

90–yillar urtasida Xlodvig xristianlikni kabul kildi. Dastlab xristianlikni Xlodvigning uzi va drujinasi kabul kildi. Keyin oddiy franklar va ularning oila a'zolari xam kabul kildilar. Varvarlarning xristian dinini kabul kilishining uzi muxim bir fakt edi, chunki bu narsa ularning romanlashuvidan dalolat berar edi. Lekin franklarning xristianlashuvi ikkinchi bir, yanada muximrok axamiyatga ega edi. Varvarlarning kupchiligi (vestgotlar, ostgotlar, vandallar, burgundlar, langobardlar) xristianlikni arianlik deb atalgan formada kabul kilgan bir vaktida (arianlik-katolik cherkoviga nisbatan bir mazxab edi.) franklar arianlikni koldirib, xristianlikni tugridan-tugri galliya – rim katolik ruxoniylaridan kabul kildilar. Bu narsa Frank

korolligining yanada rivojlanish uchun katta axamiyatga ega buldi. Galliya va Rimdagi e'tiborli maxalliy ruxoniylar Xlodvigni va boshka Frank korollari zur berib kullab kuvvatladilar. Bu narsa franklarning Galliya janubidagi kolgan erlarni Bestgotiya va Burgundiyanı buysundirishlarini ancha osonlashtirdi xamda franklarning uz orasida xam korol xokimiyati ta'sirining ortishiga ancha yordam berdi. Xlodvig kolgan barcha sali va ripuar korollarini sekin-asta kirib borib, yangi juda katta korollikning yakkayu-yagona koroli bulib oldi, bu korollik (Reynning narigi tomonidan erlardan tashkari) Galliyaning turtdan uch kismini uz ichiga olar edi.

3. Xlodvigning ugil va nevaralari korollikni tez-tez bo`lib va qayta bo`lib turishlariga uzaro urushlar olib borib turishlariga karamay korollikning chegaralarini kengaytirishni davom ettirdilar. 534 yilda ular Burgundiyanı zabt etdilar, 542 yilda Vestgotlarning Galliya dagi oxirgi erlari xam bosib olindi. Reynning narigi tomonida esa Alemaniya, Tyuringiya, Bavariya xamda saks kabilalarining ba'zilari franklarga buysundi. VI asrning ikkinchi yarmida Frank korolli gi barcha varvar korolliklari ichida eng katta korollik edi. Ilgari Teodorix davrida ostgotlar kulida bulgan gegemonlik endi franklar kuliga utdi.

VII asrning oxiri–VIII asrning boshlarida Frank davlati butunlay parchalanib ketdi. Pipin Geristalskiyning galaba kozongan bulishiga karamay Neystriya va Burgundiya magnatlari xali xam uzlarini markaziy xokimiyatga u kadar karam emas, deb xis kilar edilar.

Akvitaniya korollikdan tamoman ajralib chikdi va Avstaziya gertsogi Akvitaniyaning xokimiyatini tan olmadi. Reynning narigi tomonidagi kabilalar-allemanlar, frizlar, sakslar va bavarlar xam ajralib chikdi. Janubiy–garbda arablar xavf tugdira boshladilar, xatto VII asrning 20 va 30 yillarida butun frank davlati arablar tomonidan tugridan-tugri bosib olinish xavfi ostida koldi. Lekin yangi dinastiya ana shunday ogir bir sharoitda korollikning xarbiy kuchlarini kaytadan tashkil etish, tashki dushmanga zarba berishga muvaffak buldi. Bu dinastiya yanada feodallashgan zodagonlarning ta'sirini cheklash xamda urta va mayda xarbiy xizmatchilarga suyanib turib, korollikni bir kadar, markazlashtirishga xarakat kildi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

- 1.
- 2.

Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.
- 2.

ADABIYOTLAR.

- 1.SEMENOV V.F. O`rta asrlar tarixi. T.1973.
- 2.KURBANGALIEVA R.S. O`rta asrlar tarixidan o`quv metodik qo`llanma. M.1980.
- 3.SAPRIGIN Yu.M. Istoriı srednix vekov. M.1971.
- 4.Salicheskaya Pravda. Per. N.P.GRADIANSKOGO, M, 1950.

6.MAVZU: FRANKLAR DAVLATI. (davomi)

(2-soat)

Reja:

- 1.Karl Buyuk davrida Franklarning davlati.
- 2.Karl Buyuk istilolari.
- 3.Karolinglar davridagi feodal munosabatlari.
- 4.Verden taksimoti va Karl Buyuk imperiyasining parchalanishi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Darsning maqsadi:

1.Karl Buyuk karolinglar dinastiyasining eng atokli namoyandasi edi (dinastiya xam uning nomi bilan atalgan). U 46 yil xukmronlik kildi. (768-814). Karl katta sarkarda va istilochi edi. Tarkib topayotgan frank feodal davlati Karl davrida juda katta agressiv siyosat yurgizdi. Juda kup joylarni istilo kilib, Karl Buyuk juda katta bir davlatga boshlik buldi. Rim imperiyasi kulagandan keyin Garbiy Evropada Karl Buyuk davlatidek katta davlat dunyoga kelmagan edi: bu davlat franklardan tashkari unlab boshka kabila va xalklarni uz ichiga olgan edi.

Karl Buyukning shaxsan uzi 50 dan ortik yurishda katnashdi. U Evropaning turli joylarida urush kildi. U avvalo langobardlar masalasiga juda katta e'tibor berdi. Langobardlar Pipin tomonidan tor-mor kilingan bulishiga karamay, langobardlar saroyida franklar bilan ittifokda bulishga karshi turgan gurux bor edi. 773-774 yillarda Karl langobardlarga karshi urush ochdi. U langobardlar poytaxti Piviyani bosib oldi va langobardlar koroli Dezideriyni taxtdan tushirdi. Langobardiya shundan keyin uz mustakilligini yukotdi, frank korolligiga kushib olinib, graflar tomonidan idora kilina boshladi. Keyincha Karl Langobardiyaga uzining ugli Pipinini vitse-korol kilib tayinladi.VII asrning 70 yillarida Karl arablar bilan xam urush kildi.

U, 778 yilda Pireneya toglari orkasiga yurish kilib Saragosa shaxrini bosib olishga xarakat kildi. Yurish muvaffakiyatsiz chikdi. Saragosani ololmadi. Kaytishda Rontseval dasarida franklar arergardiga maxalliy axoli-basklar xujum kildi. Bu jangda franklar otryadi deyarli butunlay kirib tashlandi. Xalok bulganlar katorida Breten markasining grafi Roland xam bor edi. Keyincha bu epizod «Roland xakida kushik» nomli mashxur dostonga tema buldi, bu doston ancha keng yozildi (XI asrning ikkinchi yarmida batamom yozilib bulindi.) Keyinchalik VIII asrning oxiri va IX asrning boshida franklar Pireneya toglari orkasiga yana bir necha marta xarbiy yurish kildilar; bu yurishlar natijasida Pireneya toglari bilan Ebro daryosi urtasidagi oblast bosib olindi. Bu erda Ispan markasi deb atalgan aloxida bir chegara

okrugga keyinchalik Barselona grafligi deb nom berildi. Notinch Akvitanija us tidan nazoratni kuchaytirish uchun Karl u erga boshka ugli Lyudovikni noyib qilib tayinlab, unga Akvitanija koroli unvoni berdi.

Lekin Karl Buyuk urushlarning kupini sharkda–Markaziy Evropada olib bordi. U sakslar bilan bulgan urushlarga ayniksa kup kuch sarf kildi. Bu urush kattik bulib, 30 yildan ortik (772 yildan 804 yilgacha) davom etdi. Franklarni xisobga olmaganda, sakslar Garbiy Germaniyada yashagan kabilalar ichida eng katta kabila edi. Ular Reyndan Elbagacha chuzilgan juda katta territoriyada urnashgan edi. Sakslarning Karl zamonidagi ijtimoiy tuzumida urugchilik tuzumi alomatlari, uning barcha yaxshi va yomon tomonlari xali anchagina saklanib kolgan edi. Sakslarning asosiy ommasi urugchilik alokalari va kabila ichidagi alokalar bilan uzaro maxkam boglangan erkin dexkonlar, shu bilan bir vaktida jangchilardan iborat edi. Birok, ular tarkok xolda bulib, juda kup kabilalarga va kabilaviy guruxlarga bulingan edi. Bu kabilalar va kabilaviy guruxlar uzluksiz ravishda bir-biri bilan uchrashib turardi. Ularning ishlab chikaruvchi kuchlari darajasi (dexkonchilikda asosan partov sistemasi kullanardi, mollar yaylovda bokilar edi), shaxarlar va savdo mutlako yuk edi, shuningdek, ularning kurol-aslaxalari va urushish usullari (yaxshi kurollanmagan dexkon piyoda lashkarlari asosiy urin tutar edi) franklarning iktisodiy va ijtimoiy-siyosiy tarakkiyot darajasidan past edi, franklar bu vaktida feodallashuv va romanlashuv soxasida juda olga karab ketgan edilar. Feodallashib borayotgan frank zodagonlarining sakslarga karshi olib borgan urushi feodallarga xos urush edi. Franklar uz oldilariga sakslar erini bosib olish va ularning uzini krepostnoylarga aylantirishni maksad kilib kuygan edilar. Saksoniyaga karshi urushishning yana bir sababi bor edi. Karl Baltika dengiziga chikishga xarakat kildi, Baltika dengizi VIII asrning oxiri va IX asrning boshlarida katta savdo axamiyatiga ega edi (skandinavlar, slavyanlar va arab savdosi shu Baltika dengizi orkali olib borilar edi.) Frank koroli Baltika savdosidan katta katta xiroj olishni muljallar edi.

Karl sakslarni dastlab VIII asrning 70 yillarida buysundirdi. Avval garbiy sakslar-vestfallar (ular Reyn va Vezer daryolari urtasida yashar edilar) buysundirildi. Ularning ketidan ostfallar xam buysundirildi (ular Vezer daryosining sharkida yashar edilar). 777 yilda Paderbornda bulgan s'ezdda saks kabilalari kupchiligining boshliklari Karlga kasamyod kildi. Karlning buyrugiga binoan, sakslarning xammasi majusiylik dinidan xristian diniga utishlari kerak edi. Saksoniyaga kupdan-kup frank ruxoniylari keldi, xamma yokda cherkovlar kurila boshlandi, sakslar cherkovga ushur xosilning undan birini tulashga majbur etilgan edilar. Lekin shundan keyin tez orada 778 yildan boshlab sakslar bir necha marta katta kuzgolon kutardilar. Bu kuzgolondan kuzatilgan maksad franklar zulmidan xalos bulish edi. Karl bu kuzgolonlarni juda xam raxmsizlik bilan bostirdi. Minglab sakslar katl etildi. Kuzgolonchilarning kupi kulga aylantirildi. Dastlab sakslarning kuzgolonlarida ularning zodagonlari xam katnashdi. Lekin Karl zodagonlarni asta–sekin uz tomoniga ogdirib olishga muvaffak buldi. Kuzgolon kutargan sakslarning asosiy boshliklaridan biri-vest fallar gertsogi Vidukind kimmatbaxo in'omlarga sotilib, 785 yilda sakslarga xiyonat kildi va Karl tomonga utdi. Lekin, shunga karamasdan, fashist tarixchilari uni «Germaniyaning milliy kaxramoni» deb e'lon kildilar. Sakslarning IX asr boshlaridagi sunggi xarakati deyarli nukul «oddiy sakslar xarakati tusida bulib, asosan Saksoniyani shimolida (Nordalbingiyada) utdi. Nixoyat, sakslar buysundirildi. Frank korolining fukarosi sifatida frank graflari tomonidan idora kilinadigan buldi. Sakslarning itoatsizrok bir kismi Reyn daryosining chap kirgogiga – franklar orasiga kuchirildi, frank kolonistlari esa kaytadan Reyn daryosining ung kirgogiga, ya'ni bir vaktlar frank kabilalarining ittifoki vujudga kelgan erga utib joylashdi.

Sakslar bilan urushish vaktida Karl Sharkiy Evropadagi boshka xalklar bilan xam urush olib borishga majbur buldi. U polab (Elba buyi) slavyanlari bilan urushdi va bu kabilalardan ba'zilariga–lyutichlarga va lujichanlarga xiroj soldi. Dunayning yukori okimidagi kuchli Avariya podsholigi franklarga karam buldi. Dunayning yukori okimidagi Bavariya korolligi tamomila bosib olindi, ilgari bu korllik franklarga onda-sonda xiroj tulab turar edi. Xorutan-slovenlardan iborat janubiy slavyan kabilalari yashaydigan Xorutaniya (karintiya),

shuningdek, Bolkon yarim orolining shimoli-garbidagi xorvat erlari Bavariya bilan birga Frank davlatiga kushib olingan edi. Xorutaniya Frank davlati sostavida uzok turmadi. Istilolar natijasida Karl Buyuk zamonida Frank davlati juda kengayib ketdi. Uning chegaralari garbda Ebro daryosi, Pireneya tolaridan Atlantika okeanigacha, sharkda Elba va Dunay daryolari va Adriatika dengizi kirgoklarigacha, shimolda Friz (yoki Nemis) va Baltika dengizlarigacha, janubda deyarli janubiy Italiyagacha bordi. Sal ilgarirok vujudga kelgan papa davlati xam Karl Buyuk davrida xakikatda unga buysunuvchi vassal davlat bulib qoldi.

843 yilda Verdenda Karl Buyukning uch nevarasi yigilishida imperiya uch kismga bulindi. Verden axdiga muvofik akasi Lotar imperatorlik unvonini saklab koldi. Lekin ukalariga nisbatan xech kanday maxsus xukukka ega emas edi, ukalarining xar kaysisi uz xolicha batamom mustakil korol bulib koldi. Lotarga Italiya, sharkda Reyn bilan garbda Mass, Shelda, Sena va Rona daryolari urtasidagi erlar (bunga burgundiya xam kiradi) tegdi. Reynning sharkidagi erlar Lyudovik Nemisga tegdi. Lotarga karashli erlarning garbidagi erlar Karl Yaltirokboshga tegdi. Keyinrok borib, Lotar ulgandan keyin erlar kaytadan bulindi. Lotarning avlodlari Italiyadagi erlarnigina uz kullarida saklab koldi. Reyn buyidagi erlarning xammasini esa Lyudovik bilan Karl uzaro bulishib oldi. Burgundiya mustakillik korollik bulib ajralib chikdi. Imperatorlik unvoni keyinrok borib Karolinglar xonadonining boshka avlodlari vakillariga utdi. Masalan, 875-877 yillarda Karl Yaltirokbosh imperator buldi, 880-887 yillarda imperatorlik toji Lyudovik Nemisning ugli Karl Semizga utdi. X asrning boshlariga kelib esa imperatorlik unvonining umuman xech kanday real axamiyati kolmadi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

- 1.
- 2.

Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.
- 2.

ADABIYOTLAR.

- 1.SEMENOV V.F. O`rta asrlar tarixi. T.1973.
- 2.KURBANGALIEVA R.S. O`rta asrlar tarixidan o`quv metodik qo`llanma. M.1980.
- 3.Salicheskaya Pravda. Per. N.P.GRADIANSKOGO, M, 1950.
- 4.Xrestomatiya po istorii srednix vekov.(pod.red. S.D.Skazkina M 1961-63 t.1-3)
- 5.Zarubejnaya literatura srednix vekov. M.1975.

7.MAVZU: IX-XI ASRLARDA FRANTSIYA.

(2-soat)

Reja:

- 1.IX-XI asrlarda Frantsiyaning ijtimoiy iktisodiy axvoli.
- 2.Kepitenglar davrida Frantsiyaning siyosiy xolati.
- 3.Frantsiyada feodallashish jarayoni va uning xususiyatlari..

Tayanch tushuncha va iboralar:

Darsning maqsadi:

1.Verdenda bulgan taksimot Evropada keyincha vujudga kelgan uchta katta davlatning – Frantsiya, Germaniya va Italiyaning tashkil topishini umumiy bir tarzda belgilab berdi. IX asrning yarmida bu davlatlar ichida eng yaxliti «garbiy franklar» davlati edi, u keyincha vujudga kelgan Frantsiyaning kurtagi buldi. Bu erdagi axolining asosiy ommasi endi tashkil topib kelayotgan frantsuz xalkidan iborat bulib, bu xalk aloxida bir shimoliy roman tilida, ya`ni ilk frantsuz tilida gapirishar edi. Bu davlatning poytaxti Parij bulib, u Luara daryosi yakinidagi Sena daryosida joylashgan. «Garbiy franklar korolligida» yoki oddiy kilib

aytganda, Frantsiyada (uni X-XI asrlarda Frantsiya deb atay boshladilar) Karolinglar X asrning oxirigacha xokimiyatni uz kullarida saklab keldilar, Germaniya bilan Italiyada esa Karolinglar ancha ilgari-X asrning boshlaridayok xokimiyatdan maxrum buldilar.

Lekin Frantsiyada xam feodal tarkoklik tezlik bilan avj olib bordi. «Birinchi frantsuz koroli» Karl Yaltirokbosh uz zodagonlariga uzluksiz yon berishga majbur buldi. 847 yilda u Mersen kapitulyariysini chikarib, bu kapitulyariyda xar bir erkin kishiga senor topib olishni taklif kildi; korol uz fukarolari ustidan kanday xokimiyatga ega bulsa, senor xam uz vassallari ustidan shunday xokimiyatga ega edi. 887 yildagi Kersin kapitulyariysi er benefitsiyalarning nasldan-naslga meros bulib kolishini, shuningdek, graflik lavozimining xam meros bulib kolishini konunlashtirdi. Shu vaktidan boshlab benefitsiyalar nasldan-naslga meros bulib koladigan erlarga-feodallarga, lenlarga aylandi. Graflik, vitse-graflik (vikontlar), markgraflik (yoki markizlar) va gertsoglik unvonlari nasldan-naslga koladigan knyazlik unvoniga aylandi. Joylarda territorial xukmdorlarga xos bulgan barcha xukuklarga, ya'ni korollik xukuklariga uxshash xukuklarga ega bulgan knyazlik dinastiyalari vujudga kela boshladi.

Karl II Yaltirokbosh zamonidayok Frantsiya korolligiga normanlar kattik xujum kila boshlagan edi. Karl II Yaltirokbosh ulgandan keyin esa (877y.) bu xujumlar juda avj olib ketdi. Xujum kilganlar kisman norvejlar, kisman shvedlardan iborat bulgan skandinavlar edi; skandinavlar usha vaktida urugchilik tuzumining tushkunlikka uchrash va feodalizmga utish protsessini boshidan kechirayotgan bulib, ular orasida kupdan-kup boskinchi drujinalar vujudga kelmokda edi, bu drujinalarga feodallashayotgan xarbiy boshliklar-yarllar va korollar raxbarlik kilar edi. Dengizda suzishga usta bulgan, usha davr uchun juda zur xisoblangan temir kurollardan foydalana bilgan (bu kurollar rudalarga boy Skandinaviyada ishlanar edi) bu normanlar juda xavfli dushman bulib chikdi. Normanlar kemalarida frantsuzlar daryolari kuyiladigan joyigacha va Urta dengiz kirgok buyidagi mamlakatlargacha kirib bordilar va bu mamlakatlarni shafkatsiz talab va xarob kilib, axolisiga daxshat soldilar. IX asrda Garbiy Evropada shu munosabat bilan maxsus bir duo vujudga kelgan bulib, bu duo «e xudo, normanlarning yovuzligidan uzing sakla» deb boshlanar edi.

Sunggi Karolinglar korollikni mudofaa kilishdan ojiz edilar. Ularning siyosiy e'tibori va xarbiy resurslari juda xam kam edi. Normanlarga karshi kurashish vazifasini maxalliy yirik feodallar uz kuliga oldi; buning natijasida ular xarbiy ximoyaga muxtoj kolgan-kutgan erkin axolini xam bemalol krepostnoyga aylantirib, uz mavkelarini yanada mutaxkamlab oldilar. 885-886 yillarda normanlar Parijni 10 oygacha kamal kilib turdilar, lekin uni axir ololmadilar. Robert Zurning (866 yilda vafot etgan, Parijning birinchi grafi) ugli, maxalliy feodal graf Ed Parijskiy muvaffakiyatli mudofaa uyushtirib, dushmanni kaytardi. Sunggi karolinglarning biri Karl IV Ankov X asrning boshida (911 y.) kuyi Sena kirgogining normanlar boshligi- gertsog Rollongan berishga majbur buldi, Rollon bu erda kuchib kelgan normanlardan iborat juda kuchli knyazlik-Normandiya gertsogligini tuzdi. Normanlar–norveglar (yoki Frantsiyada atashlaricha normandiyaliklar) maxalliy axoli bilan tezda aralashib ketdilar, xristianlikni kabul kildilar va frantsuz tili xamda urf-odatlarini uzlashtirib oldilar.

Yangi frantsuz–normandiya gertsogligi Shimoliy Frantsiyadagi eng kuchli feodal knyazligi bulib koldi; bu knyazlik rasman Karolinglarga vassal-tobe edi, amalda esa ularga mutlako tobe bulmay, ba'zan Parijning uzini xam bosib olish xavfini solib turdi.

Oxir okibatda Karolinglar xam Merovinglar kuniga tushdi. Sunggi Karolinglar xam butunlay nochor axvolga tushib koldi. X asrning oxirida ularning erlari Frantsiyaning shimolida Lan shaxrining uzi bilangina cheklanib koldi, desak buladi. Sunggi Karoling Lyudovik V Yalkov ulgandan keyin Robert Zurning nasllaridan biri bulgan Gugo Kapet nomli kishi 987 yilda zodagonlar va ruxoniylar yigilishi tomonidan Frantsiya koroli deb saylandi. Shunday kilib, Frantsiyaning yangi dinastiyasi-Kapetinglar dinastiyasi idora kila boshladi. Birinchi vaktlarda Kapetinglar xokimiyati juda kuchsiz buldi. Ancha keyinrok borib, XII va XIII asrlardagina bu dinastiya kaddini rostlab olgan shaxarlarga suyanib turib,

Frantsiyani birlashtirishga va markazlashgan davlatga asos solishga muvaffak buldi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

- 1.
- 2.

Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.
- 2.

ADABIYOTLAR.

- 1.SEMENOV V.F. O`rta asrlar tarixi. T.1973.
- 2.KURBANGALIEVA R.S. O`rta asrlar tarixidan o`quv metodik qo`llanma. M.1980.
- 3.Xrestomatiya po istorii srednix vekov.(pod.red. S.D.Skazkina M 1961-63 t.1-3)
- 4.KOLESNITSKIY N.F. Feodalnoe gosudarstvo (V-XV vv.) M.1967

8.MAVZU: IX-XI ASRLARDA ANGLIYA.

(2-soat)

Reja:

- 1.IX-XI asrlarda Britaniyaning ijtimoiy iktisodiy axvoli.
- 2.Britaniyada ang-saks istilolari va anglsaks korolliklari.
- 3.Angliyaliklarning Daniyaliklar istilosiga karshi kurashi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Darsning maqsadi:

1.Ilkl angl-saks korolliklarining ijtimoiy tuzumida uzok vakt saklanib kelgan urugchilik munosabatlarining yakkol alomatlari kurinib turar edi. Juda kupdan-kup "xakikat" larga, ya'ni VII-VIII asrlardagi turli angl-sakslarning ijtimoiy tuzumini kuz oldimizga keltirishimiz mumkin: ularning ijtimoiy tuzumi kup jixatdan franklarning "Sali xakikati"da tasvirlangan ijtimoiy tuzumiga uxshar edi. Franklardagi singari, angl-sakslarda xam axolining asosiy ommasi (angl-saks "xakikatlari"da ishlatilgan termin bilan aytganda) erkin kishilardan-kerllardan iborat edi. Bular mustakil dexkonlar bulib, gayda deb atalgan katta-katta er uchastkalariga ega edilar (ba'zi korolliklarda xar bir kerl oilasiga tegishli katta chek erning mikdori 120 akr yoki bizning xisobimizcha 50 gektarga kelar edi). Kerlning vergeldi 200 shilling edi. Zodagon kishining-erlning vergeld esa dastlabki fakat 400 shilling bulgan bulsa, keyinchalik 600 shillingga etdi. "Xakikatlar"da kerldan tashkari,600 shillingga etdi. "Xakikatlar" da kerldan tashkari yana letlar yoki uillar tilga olinadi. Bular uz axvoli jixatidan frank lidlariga uxshagan yarim erkin kishilar edi. Ularning uz eri bulmay, ma'lum majburiyat evaziga erllarning erini ishlab berar edilar. Ularning vergeldi 80 shilling atrofida edi.Letlar Britaniyaning buysundirilgan maxalliy axolisidan kelib chikkan deb taxmin kilinadi. Zodagon angl- sakslarning, erllarning (va xatto ba'zi bir eng boy kerllarning) kullari xam bulib,bu kullarning bir kismi xovlida xizmat kiladigan kullar edi, bir kismi obrokchi kullar bulib, dexkonchilik bilan shugullanar edi.

2.Angl-saks jamiyatida jamoa va boshka maxalliy boshkaruv organlari juda kup edi. Bularning asosiysi kishlok-tun edi. Bu kishlok-kishlok jamoasidan iborat bulib, unda er-suv bor edi, muntazam suratda kishlok yigini-galimot chikarilib turardi, saylab kuyiladigan kishlok oksokoli bulardi.Kishlok jamoalarining vakillari oyda bir marta yuzboshilar majlisiga tuplanardi. Yuzboshilar majlislaridan yukori urinda xar bir graflikning xalk majlisi bulib,bu majlislar tarixiy jixatdan kabilaviy koroliklar davridan saklanib kolgan edi. Korol vakili-

graflikning rasmiy boshligi, sherif-uz faoliyatida graflikning bu kengashi bilan xisoblashib turishi kerak edi, bu kengashda maxalliy zodagonlar xal kiluvchi ta'sirga edi. Nixoyat korol xuzurida vitenagemot-("donolar kengashi") butun birlashgan korollik zodagonlarning kengashi chakirilib turardi. Vitenagemot korol xokimiyatini juda xam cheklab kuygan edi. U, konunlarni tasdiklardi va mamlakatlarning oliy sud organi edi. Korollarni saylash va biror gunox kilib kuysa, urnidan turishi xam vitenagemot kulida edi, u tasdiklamasa, korolning xech kanaka in'omi amalga oshmas edi.

VIII va IX asrlarda, ayniksa, X asrda angl-sakslarning patriarxal jamoa tartiblari tobora tushkunlik sari yuz tutdi. Xali kuchli bulgan kishlok jamoasi bilan bir katorda katta aristokratik er egaligi avj oldi. Korol maxsus yorliklar berib, erni dunyoviy zodagonlarga va cherkovga xususiy mulk kilib bera boshladi. Odatdagi konun-koidalarga asoslangan er mulkiga, ya'ni jamoalarning, ya'ni jamoalarning, dexkonlarning, dexkonlarning er mulkiga (folklendga) karama-karshi ularok, mamlakatda pomeshchiklar mulki (boklend), erga korol erligi-yoki asosida egalik qlish tobora kuchayib bordi, korol erning feodallarning xususiy mulki bulishni tan olish bilan birga, boklend egalariga kupincha yana bir imtiyoz va immunitetlar (maxalliy dexkon axolisini sud kilish va ulardan solik tulash xukuki) xam berdi.

Dehqonlarning chek eri borgan sari maydalanib bordi. Katta dexkon oilasining ilgari urtacha chek eri-gaydar urniga IX-X asrlarda xam joyda dexkonlarning mikdor jixatidan ancha oz bulgan yangi chek eri – virgata uchraydi (virgata–gaydaning turtdan bir kismi).

3. Daniyaliklarning xujumlari dexkonlarning axvoliga juda yomon ta'sir kildi. Daniyaliklar uz xujumlari vaktida dexkonlarning xujaliklarini butunlay vayron kiladilar. Dexkonlar burglar, kupriklar va yullar kurish, lashkarlar safida turib kurikchilik kilish va xarbiy xizmatni utash uchun juda kup vakt sarflashga majbur edilar. Tobora ortib borgan "daniyaliklar puli"-xar bir chek erga solinardi. Nixoyat, daniyaliklarga karshi olib borilgan uzluksiz urushlar vaktida juda kup ritsarlar vujudga kelib, bularni ta'minlash xam shu dexkonlar ustiga tushardi. Ilgari korol drujinalari- gezitlarning urnini olgan korol tanlari xarbiy-feodal tipidagi er egalariga aylanib bordilar.

Zaiflashib kolgan dexkon jamoalari zodagonlarning xomiyligiga utishga majbur buldilar. Angliyada kommendatsiya VII-VIII asrlarga oid esdaliklarda uchraydi, lekin bu narsa IX-X asrlarda ayniksa kupaydi. X asrda korollardan biri Etelstan (Alfredning nevarasi) bir farmon chikardi, bu farmon Frantsiyadashi Karl II Yaltirokbosh farmonining aynan uziga uxshardi, desa buladi. Etelstan 930 yilda xar bir erkin kishiga uzi uchun bir xujayin (ang-sakscha "lord", bu termin frantsuzcha "senor" degan terminga tugri keladi) topib olishni buyurdi. Dexkonlarning uz yonidagi katta er egasiga bulgan karamligini davlat xokimiyati immunitet tarzida rasmiylashtirdi. Korol katta er egalariga uz atrofidagi axolini sud kilish va undan tegishli sud bojlari olish xukukini berdi. Bunday xususiy sud kilish xukuki soka deb, xususiy sud kilingan dexkonlar sokmenlar deb atalardi. Erdor lordlar minoralar (bu suz xam ang-sakslar vaktida paydo buldi) deb atalgan uz pomestelarida kisman kullar mexnatini, kisman esa krepostnoylar mexnatini ekspluatatsiya kilardilar. 1000 yilga oid bir manbada dexkonlarning turli gruppalari tasvirlanadi, lekin ilgari kyorllar degan nom urniga endi bu xujjatda genitlar va geburlar degan yangi nomlar ishlatiladi; genitlar xususiy er egasi bulib, kisman yonidagi lordlarga soliklar tulab turuvchi erkin dexkonlar edi, geburlar esa uz eri bulmay, pomeshchiklarning erida dexkonchilik kilib, unga yil buyi xar xaftada uch-turt kun juda ogir barshchina utab beruvchi va bundan tashkari, lordga mol, galla, pul shaklida turli xil soliklar tulab turuvchi dexkonlar edi. Kam erli dexkonlarning yana bir gruppasi kassetlar (kotterlar) tilga olinadi, bularning kichik bir parcha erlari va kulbalari bulib, bular evaziga uncha katta bulmagan barshchina majburiyatini utar edilar.

Rim legionerlari Britaniyadan V asrning boshlaridayok chikib ketgan edi. Birok mamlakatning bir kancha mayda korolliklarga bulinib ketishiga sabab bulgan "britaniya mustakilligi" uzokka bormadi. V asrning urtalaridan boshlab (449 yil atrofida) bu orolga turli xil shimoli-garbiy german kabilalari- angllar, sakslar, yurtlar bostirib kira boshladilar. Orol

oz-ozdan istilo kilinib borib, bu istilo butun bir asrga-VI asrning ikkinchi yarimigacha chuzildi. Angl-sakslar istilosi natijasida ilgari Britaniya territoriyasida undan ortik mayda varvar german korolliklari vujudga keldi; bu varvar korolliklari eng chekka garbdan-Uels bilan Kornueldan va kelt korolliklari saklanib kolgan eng chekka shimoldan Shotlandiyadan tashkari orolning butun territoriyasini egalladi. VII asrga kelib angl-saks korolliklari bir kadar yiriklashib, ettita (geptarxiya deb ataladigan) korollikni tashkil etdi. Janubda sakslarning uchta korolligi-Uesseks, Sesseks, Esseks (garbiy, janubiy va sharqiy saks) korolliklari vujudga keldi. Markazda va shimoli sharqda asosan angllar urnashgan bulib, bu erlarda Mersiya, Nortumbiya va Sharkiy Angliya korolliklari tashkil topdi. Yurtlar chekka janubi-garbdan muxim territoriyani, ya'ni Temza daryosi kuyiladigan joyni ishgol qilgan kichik bir kent korolligini tuzdilar. VII asr ichida VIII asrning birinchi yarmida asosiy rolni shimoliy korolliklar-Nortumbriya va Mersiya uynadi. VIII asrning urtalaridan boshlab gegemonlik janubiy korolliklardan biriga-Uessesga utdi (uning poytaxti Vinchester edi). Uesseks korollari dastlab janubni-Sesseks, Esseks va Kentni uziga buysundirdi, sungra IV asrning boshlarida esa Mersiya bilan Nortumbriyani bosib oldi. Sharkiy angllar korolligi uz mutakilligini bundan ilgari yukotgan bulib, avval Nortumbriyaga, keyin esa Mesiyaga buysungan edi. Uesseks koroli-butun mamlakatni birlashtirgan kishi – Ekbert (802-839) edi. U mamlakatni birlashtirishni 829 yillarda amalga oshirdi.

Birlashgan angl-saks korolligi tashkil topishi bilanok daniyaliklarga kattik karshi kurash boshlashga majbur buldi. Daniyaliklar deganda Angliyada fakat Skandinaviyadan Yutlandiya yarim oroliga kuchib kelib urnashib, bu erda IX asrda kuchli korollik tuzgan daniyaliklarning uzigina emas, balki yana skandinav-norvejlar xam nazarda tutilaredi. Skandinav-normanlarning Evropa kit'asiga-Frantsiyaga va Janubiy Italiyaga qilgan xujumlari tugrisida yukorida gapirib utilgan edi. Skandinavlarning Britaniya orollariga qilgan xujumlari undan xam daxshatlirok buldi. Ular Irlandiyaga, Shotlandiyaga va Angliyaga bir necha asr davomida juda kup va daxshatli xujumlar kilib turdilar. Umuman olganda, daniyaliklar-skandinavlarning Angliyaga qilgan xujumlari kamida 300 yil (VIII asrning ikkinchi yarmidan to XI asr urtalarigacha) davom etdi. Juda kup skandinavlar shimoli-sharqiy Angliyaga urnashib olib, bu ulkaning tarakkiysiga ta'sir etdi.

838 yilda Ekbert daniyaliklarning Angliyaga qilgan xujumlaridan birini kaytara oldi. Ammo, 842 yilda ular orol ichkarisiga yana bostirib kirib, Londonga ut kuydilar, 866 yilda esa shimoli- sharqiy kirgokning xammasini bosib oldilar. Daniyaliklar ancha zich joylashgan bu territoriya butun urta asr davomida Daniyaga karashli mintaka degan nom bilan yuritilar edi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

- 1.
- 2.

Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.
- 2.

ADABIYOTLAR.

- 1.SEMENOV V.F. O`rta asrlar tarixi. T.1973.
- 2.KURBANGALIEVA R.S. O`rta asrlar tarixidan o`quv metodik qo`llanma. M.1980.
- 3.Xrestomatiya po istorii srednix vekov.(pod.red. S.D.Skazkina M 1961-63 t.1-3)
- 4.LIVITSKAYA YA.A. Gorod i gorodskie remeslo v Anglii X-XII v.v M.1960.
- 5.SAPRIGIN YU.M. Istoriya srednix vekov M 1971

9.MAVZU: IX-XI ASRLARDA GERMANIYA.

(2-soat)

Reja:

- 1.Germaniyada feodllashish jarayoni va ilk feodal davlatning vujudga kelishi.

2.Saksoniyaliklar sulolasi xukmronligi davridagi Germaniya.

3.Imperial va papaning investitura uchun kurashi. Saksoniya kuzgoloni.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Darsning maqsadi:

1.843 yilda Verdenda bulgan taksimotga muvofik «Sharkiy Frank erlari» (bulgusi Germaniya territoriyasi nazarda tutilgan edi). Lyudovik Nemisga (yoki nemischa, Lyudovigga) utdi. Aslida bu erlar bir necha kabilaviy knyazliklarning-gertsogliklarning erlari edi. Mamlakatning xech kanday milliy birligi tugrisida u vaktida suz xam bulishi mumkin emasdi. Gertsogliklar shimoldan-janubga karab kuyidagi tartibda joylashgan edi: saksoniya, Frankoniya, Shvabiya (ilgarigi Allemaniya), Bavariya. Bir muncha keyinrok borib garbda joylashgan beshinchi bir gertsoglik-Lotaringiya kushib olindi.

Reynning narigi tomonidagi erlarda feodallashuv protsessi Frantsiyadagiga karaganda sustrok buldi. Xatto X asrning boshlarida xam Germaniya, u kadar feodallashmagan edi. Jamoalarga–markalarga uyushgan erkin dexkonlar uzok vaktgacha uz mutakilliklarini saklab keldilar. Krepostnoylashtirish yulidagi urinishlarga dexkonlar katta kuzgolon kutarish bilan javob berdilar. Shunday katta kuzgolonlardan biri, masalan, 841-842 yillarda Saksoniyada bulib, u «Stelling» degan nom bilan mashxurdir. Bu kuzgolon dexkon jamoalarining ittifoki bulib, bu ittifok eski majusiylik bayrogi ostida ish kurgan edi, bu ittifok xam kelgindi frank zodagonlariga, xam maxalliy sakszodagonlariga karshi karatilgan edi.

2.919 yilda zodagonlar Saksoniya Gertsogi Genrix I Kushbozni korol kilib sayladi. U Saksoniliklar dinastiyasiga asos soldi, bu dinastiya 1024 yilgacha idora kildi. Genrix I zamonida (919-963) Germaniyada korol xokimiyati juda avj oldi. Saksoniya gertsogligi eng katta gertsoglik bulib, Germaniyaning butun shimoliy kismini egallaredi. Bu erda erkin dexkonlar (frilinglar yoki freymanlar) anchagina saklanib kolgan bulib, bulardan kisman piyoda xarbiy lashkarlar tuzildi. Shu tufayli Saksoniya gertsogligi boshka gertsogliklarga nisbatan ancha mustaxkam va mustakil gertsoglik edi. Genrix I keng mikyosda agressiya tashki siyosat yurita boshladi. Genrix I zamonida Germaniya territoriyasi garbga va sharkka karab kengaytirildi. Frantsuz Karolinglarning zaifligidan foydalanib, Genrix I ulardan Lotaringiyani tortib oldi. Sharkda esa u, Elba daryosi buyida yashagan garbiy slavyanlarga karshi agressiya boshladi. Genrix I Elbadan utib, slavyan kabilalari bulmish lyutichlar eriga bostirib kirdi. Nemislar slavyanlarning Branibor nomli kal'asini bosib oldi va unga Brandenburg deb nom berildi. Elbaning narigi yogidagi bosib olingan erlar nemislarning yanada sharkka tomon xujum kilishi uchun platsdarm buldi. Shunday kilib, Genrix I nemislar tomonidan slavyanlar olamiga karshi olib borilgan konli urushlar davrini boshlab berdi. Genrix I sharkda slavyanlardan tashkari yana vengrlarga karshi xam urush olib bordi. 933 yilda u Merzeburgga yakin bir joyda vengrlarga kattik zarba berdi. Slavyanlarga va vengrlarga karshi kurash vaktida Genrix I erkin dexkonlarning yukori tabakalaridan, kisman ministeriallardan olinadigan ritsarlar sonini kupaytirishga xarakat kildi. Mudofaaning ikkinchi bir vositasi sifatida, u juda kup kal'alar-burglar (ayniksa Saksoniya gertsogligi territoriyasida) kurdirdi; bu kal'alarining bir kismi keyincha savdo–sanoat shaxarlariga aylandi.

3.X asrning urtalarida katolik cherkovi aloxida bir xolatda edi. Bir tomondan, bu vaktida cherkov uz ta'sirini butun Garbiy Evropaga yoygan edi. XI asrda Skandinaviya xalklari, Vengriya, Polsha xristianlikni uzil-kesil xal kildi; Pireney yarim orolining anchagina kismi musulmon arablarining xukmronligidan xalos bulgan edi. Cherkovning Evropadagi turli mamlakatlarida juda kup erlari bor edi. Uni bir markazdan turib Rim papasi boshkarar edi. Katolik cherkovining ideologlari IX asrdayok, cherkov (papa) xokimiyati dunyoviy xokimiyatdan (imperator va korol xokimiyatidan) yukori turadi, deb ochikdan-ochik bayon kilgan edilar. Birok xakikatda esa bunday xokimiyatga ega emas edi. Papalar odatda Rim ruxoniylari va Rim dunyoviy zodagonlari tomonidan saylanar edi. Papa saylashning kat'iy bir

tartib koidasi yukligi natijasida bu saylovlar uzluksiz uzaro urushlarga aylanib ketar va bu narsa imperatorlarning Rim kuriyasi ishlariga aralashishga imkon berar edi. Katolik cherkovining erlari kup edi. Lekin bu erlar dunyoviy xokimiyatning leni xisoblanar edi. Germaniyada esa imperatorning dunyoviy vassallar kulidagi erlardan kura, cherkov erlari kuprok imperator ixtiyorida edi («Otton I ning episkoplik sistemasi»). Imperator cherkov erlarini davlatga karashli korol erlarining kup turlaridan biri, deb karar edi.

Pirovardida Gildebrandning uzi papa bulib, Grigoriy VII (1073-1085) degan nom oldi. Grigoriy VII xar kanaka kelishishni xam yomon kuradigan, mustaxkam irodali, ujar fanatik, juda keskin kishi bulib, teokratik ideyalarni batamom uzlashtirib olgan edi. U papalar uz xukmi bilan korol va imperatorlarni taxtdan tushirish mumkin, lekin uzi (papa) ustidan bu dunyoda xech kim xech kanday xukm chikara olmaydi, deb xisoblar edi. Imperatorlar bilan korollar- papaning vassali, papa esa ularga nisbatan sinor, ya'ni xukmdor, der edi.

- 2.Garbiy Evropada shaxarlarning paydo bulishi.
- 3.Shaxarlarning xukuklari va erkinligi.Shaxar xunarmandchiligi.
- 4.Shaxarlar va tashki savdo. Yarmarkalar.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Darsning maqsadi:

1.Garbiy Evropa tarixida XI asr burilish asri buldi. Bu asrda Evropaning juda kup mamlakatlarida feodal munosabatlar uzil-kesil rasmiylashdi. Xatto feodalizm xiyla sekin suratlar bilan rivojlangan mamlakatlarda (Angliya, Germaniya, Skandinaviya va garbiy slavyan mamlakatlari) xam XI asrda feodallashgish jarayoni chukur ijtimoiyy uzgarishlarga olib keldi. Shu sababli bu mamlakatlarda ishlab chikarishning feodal usuli, bir tomondan, jamiyatning feodal katta er egalariga va, ikkinchi tomondan, ularga karam bulgan krepostnoylar va yarim krepostnoylarga bulinishi xukmron ijtimoiy xodisalarga aylandi. Ammo XI asrda feodal Evropasi tarakkiyotida yana boshka bir muxim jarayon xam boshlandi. Bu esa xunarmandchilik va savdo-sotikning markazi sifatida, xususiy mulkchilikning va kishlokdagidan tamomila boshkacha ishlab chikarish munosabatlarining yangi formalari tuplangan manzilgox sifatida shaxarlarning paydo bulishidir. Bu esa kupgina shaxarlarning vujudga kelishida va usha damgacha, asosan, ma'muriy yoki sof xarbiy manzil vazifasini utab kelgan kuxna markazlarning jonlanishida namoyon buldi. Shu paytdan e'tiboran shaxar ijtimoiy tarakkiyotining muxim omili bulib koldi. XI asr oxiriga kelib Evropada Sharkka tomon salib yurishlari boshlandi. Salib yurishlari Garbiy Evropaning tanxolik xolatidan chikarib, uning iktisodiy xamda ijtimoiy tarakkiyotini tezlashtirishga ancha ta'sir kursatdi.

2. XI asrdan oldin xam Evropada shaxarlar bor edi. Shaxarlarning kupchiligi Rim davridan urta asrga meros bulib kolgan. Italiyada, Frantsiyada, Angliyada, Garbiy va janubiy Germaniyada, shuningdek, Ispaniyada bunday shaxarlar oz emas edi, chunonchi: Italiyada-Rim Florentsiya, Milan, Neapol, Frantsiyada-Parij, Lion, Marsel, Bordo, Angliyada-London, Vinchester va York, Germaniyada- Aaxen, Trir, Maynts, Augsburg, Regensburg, Ispaniyada-Barselona va Saragosa va xokazo. Birok bu shaxarlar ilk urta asr davrida sanoat ishlab

chikarishi va savdo-sotik markazlari bulmagan. Bular dunyoviy va ruxoniy feodallarning rezidentsiyalari yoki kalalari bulgan.

Feodallarning mulozimlari yoki xizmatkorlari bulib, xizmat kilmagan shaxarliklar, dexkonlar singari, odatda, dexkonchilik bilan shugullangan. Kuxna Rim shaxri territoriyasining uzida kisman axoli urnashgan edi. Xunarmandchilikning rivojlanishi va uning kishlok xujaligidan ajralib chikishi bilan eski Rim shaxarlari gavjumlashdi va kuplab yangi shaxarlar paydo buldi. Marks bilan Engels uzlarining birgalashib yozgan «Nemis ideologiyasi» degan ilk asarlarida «Xar bir millat ichidagi mexnat taksimoti, xammadan burun sanoat va savdo mexnatining dexkonchilik mexnatidan ajralishiga va shu bilan shaxarning kishlokdan ajralishiga xamda shaxar manfaatlari bilan kishlok manfaatlarining bir-biriga karama – karshi bulishiga olib keladi»- deb yozgan edilar.

Dexkonlarning feodallar ekspluatatsiyasiga karshilik kursatishining tobora usib borishi shaxarlarning rivojlanishiga katta yordam kildi. Pomeschchiklarning er mulklaridan kochib ketgan krepostnoylar vujudga kela boshlagan shaxarlarning dastlabki mexnatkash axolisini tashkil kildilar.

Yangi shaxarlar turli joylarda: feodallarning kasrlari tevaragida (chunonchi, xozirgi Garbiy Evropa shaxarlarining nomlarida tez-tez uchrab turadigan «burg» kushimchasi-Strassburg, Augsburg, Freyburg, Gamburg, Brandenburg va xokazo), monastirlar tevaragida (bunday shaxarlarning nomi odatda «sakt», «san», sen» («svyatoy») suzlari bilan boshlanadi, masalan Sen – Jermen, Sent-Albans, Sankt-Gallen, Sant-Yago va boshkalar), ba'zan daryolardan kechib utiladigan kulay joylarda (Angliya Oksford va Kembridj, Germaniyada Mayn daryosi buyidagi Frankfurt va Odra daryosi buyidagi shaxarlari, Niderlandiyada Bryugge («kuprik» shaxari va xokazo) vujudga keldi.

3. Iktisodiy markaz bulgan shaxarning, vakt utishi bilan, atrofdagi rayonlar uchun axamiyati tobora ortib bordi. Shaxar xunarmandalari shaxar bozoriga muntazam kelib turadigan dexkonlarni uz sanoat buyumlari bilan ta'minlab turadilar. Shaxarliklar esa, dexkonlardan kishlok xujalig xom- ashyosi sotib olardi. Shunday kilib, shaxar bilan kishlok urtasidagi mexnat taksimoti doimo davom kilib turadigan uzviy bir xolat kasb etdi. Xunarmandchilik va savdo-sotik markazi bulgan shaxar kishlokni savdo oborotiga tortib, unda xam tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga yordam kildi.

XI asrga kelib shaxarlar fakat kushni kishloklar bilangina savdo-sotik kilmay, balki ularning kuplari ancha keng savdo-sotik alokalari xam bogladilar. Bu shaxarlar bir-birovlari bilan zur berib aloka kilishlaridan tashkari, Vizantiya va Arab Sharkining ayrim markazlari bilan xam savdo-sotik alokalari bogladilar. Urta dengiz buyida katta savdo-sotik ishlari olib borgan shaxarlar orasida ayniksa Italiyaning Genuya, Amalfi, Piza, Venetsiya singari shaxarlari aloxida ajralib turardi. Venetsiya bilan Genuya avvalrok katta savdo floti kurdilar. Bu shaxarlarning axolisi tez usib bordi. Bu shaxarlarda boy savdogarlarning yukori tabakasi maydonga kelib, u xokimiyatni uz kuliga kiritib oldi. Shark bilan savdo-sotik kilishda janubiy Frantsiya shaxarlari: Marsel Arl, Narbonna xam katnashdilar. Kataloniya markazi Barselona shaxri Urta dengiz buyi savdosida aktiv rol uynadi.

4. O`rta dengiz buyi rayonidan tashkari, XI asrda Evropa savdosining ikkinchi bir rayoni- Shimoliy dengiz buyida markazi Niderlandiya bulgan mamlakat xam ajralib chikdi. Agar italyan, janubiy frantsuz va Kataloniya savdogarlari savdo sotikda asosan vositachilik rolini uynagan bulsalar (italyan, frantsuz va ispan savdogarlari Sharkdan kelgan tovarlarni sotib olib, sungra ularni Evropa mamlakatlariga olib borib pullardilar), Niderlandiya, shimoliy frantsuz va Reyn buyidagi nemis savdogarlari, shuningdek, Shimoliy Italiya shaxarlari keng xalkaro savdo-sotik olib borish uchun xunarmandchilik maxsuloti ishlab chikaradigan maxsus bazalariga ega edilar. Niderlandiyada va Germaniyada – Gent, Bryugge, Ipr, Arras Bryussel, Keln shaxarlari, Italiyada-Milan va Florentsiya shaxarlari bu masalada etakchilik rolini uynaydilar. Ammo Shimoliy dengiz va Baltika dengizi buyidagi shaxarlarga nisbatan Urta dengiz buyi shaxarlari bu ilk davrda, ya'ni X-XI va xattoki XII asrlarda savdo-sotik ishlarida xukmron vaziyatni egallagan edilar. Sharkdan keladigan maxsulotlar kimmatbaxo tovarlar

bulib, ularning bir kismini yukori sifatli buyum sifatida Yakin Shark mamlakatlari etkazib turardi va u Garbiy Evropa buyumlarini ishlab chikara bilmasdi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

- 1.
- 2.

Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.
- 2.

ADABIYOTLAR.

- 1.SEMENOV V.F. O`rta asrlar tarixi. T.1973.
- 2.KURBANGALIEVA R.S. O`rta asrlar tarixidan ukuv metodik qo`llanma. M.1980.
- 3.KRILOV A.A. Srednevekovo`y angliyskiy gorod.M.1949
- 4.SAPRIGIN Yu.M. Istoriya srednix vekov M 1971
- 5.Regsto` remesel i torgovlya goroda Parija. V kn Srednie veka. M.1957,1958.vo`l 10,11.
- 6.STAM S.I. Ekonomicheskaya i sotsialnaya razvitie rannego goroda. (Tuluza 10-13 vv) saratov 1969.
- 7.Sidirova N.A. Ocherki po istorii ranney gorodskoy kulturo` vo Frantsii M.1953

2-Qism

1. Mavzu: G`arbiy Evropada kapitalizmning vujudga kelishi 2-soat

Reja

- 1.Feodalizmning emirilishi va kapitalizm kurtaklarining paydo bo`lishi
- 2.Kapitalistik manufaktura
- 3.Qishloq ho`jaligida kapitalizmning rivojlanishi
- 4.Burjuaziyaning rivojlanishi. Feodal davlatining yangi formasi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Darsning maqsadi:

1.XVI-XVII asrlar feodalizm formatsiyasidan kapitalizm formatsiyasiga o`tish davridir. Feodal ishlab chiqarish usuli xali hukmron bo`lib turgan edi. Ammo bu usul uzilib-chirib, o`zining eng muhim xususiyatlarini (masalan, Bikik natural ho`jalik, shaxsiy krepostnoy huquq, sanoat ishlab chiqarishda sexlar monopoliyasi) yo`qotadi va o`rnini yangi iqtisodiy formalarga (qishloqda arenda munosabatlari, sexdan tashqari sanoatning rivojlanishi va uning olib sotarlarga bo`ysundirilishi, sehlarning o`z ichidagi differentsiya) bo`shatib beradi. Bu formalar esa yangi kapitalistik ishlab chiqarish usulidagi o`zgarishlarni XI-XU asrlardayoq o`rta asr jamiyatidagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning umumiy o`sishi taqozo qilgan edi.

XVI asrda va shundan keyingina ishlab chiqarish usulida asta-sekin, ammo vaqt o`tishi bilan tobora jadallashib borgan o`zgarishlar keskin iqtisodiy to`ntarishga olib keldiki, bu narsa birinchi navbatda G`arbiy Evropadagi iqtisodiy jihatdan eng ko`p rivojlangan mamlakatlarda namoyon bo`ladi.

Kapitalistik ishlab chiqarish sharoit tug`ila borgan sari mayda hunarmandchilik o`z o`rnini yirik sanoatga bo`shatib bera boshladi.

2.Kapitalistik ishlab chiqarishning dastlabki formasi manufaktura edi. Manufaktura asosan qo`l mehnatiga, hunarmandchilik texnikasidan foydalanuvchi kasb-korlikka asoslansa

ham, undan farqli o'laroq, manufaktura ancha yirik ishlab chiqarish jarayonida mehnat ta'limoti juda mayda qismlarga bo'linib ketgan edi. Bu esa mehnat unumdorligining keskin o'sishiga olib kelardi, manufakturaning keskin progressiv harakati ham avvalo shundan iborat edi. Manufakturaga kapitalist-soxibkor boshchilik qilar edi, ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lgan ishchilar esa o'sha kapitalist uchun ishlardilar. Bunday manufaktura konyentratsiya qilingan manufaktura deb atalardi: u o'sha paytdayoq kapitalistik fabrikani eslatardi.

Ammo manufaktura taraqqiy qilgan XVI-XVII-XVIII asrlarda markazlashtirilgan manufakturadan boshqa xil manufakturalar ham bo'lgan. Miqdor jihatdan olganda manufakturaning markazlashtirilgan turi uning boshqa «tarqoq» yoki markazlashtirilmagan turiga qaraganda kamroq tarqalgan edi. Ko'proq G'arbiy Evropada (keyinchalik Rossiyada ham) manufaktura qishloqdagi xonaki sanoat bilan qo'shib ketgan edi. Hunarmand kam erli yoki butunlay ersiz dehqon manufakturag qaram bo'ladi va «uyda ishlaydigan ishchiga aylanadi». Manufakturachi uni xom ashyo bilan ta'minlab turadi va unga to'lanadigan ish haqini o'zi belgilaydi. U yoki bu buyumning har bir qismini uyda ishlaydigan ishchilarning har qaysisi o'z ixtisosi qilib berar edilar. Biroq buyum yasashning eng so'ngi jarayoni pardozlash shahardagi yoki shahar atrofidagi markazlashgan tipdagi manufakturalarda amalga oshirilardi.

Shu tariqa manufaktura davrida ishlab chiqarish hali asosan qo'l mehnati, hunarmandchilik xarakterini saqlab qolgan bo'ladi. Biroq manufakturada mehnatning texnika jihatidan taqsimlanishi keng tus olgan edi. Uning ilgari sex hunarmandchiligiga nisbatan eng asosiy texnika afzalliklaridan biri ham shundan iborat edi. Biroq manufaktura davrining texnikasi uni murakablashtirgan qamda mashina ishlab chiqarishga yaqinlashtirgan bir qancha ayrim texnika takomillashtirishlarni ham o'z ichiga olardi. Ayrim juda oddiy mashinalar manufaktura davrida ham bo'lib, fabrika davrining kelgusidagi rivojlangan mashina texnikasi uchun elementlarni tayyorlay boshlagan edi.

Ipni pishitish va kalavani bitta protstsessa birlashtiruvchi yigirish dastgohining ixtiro qilinishi manufaktura davrining ilk davridayoq to'qimachilik sanoatidagi juda muhim kashfiyot bo'ldi. O'zi yigiruvchi dastgoh 15 asrning 80 yillaridayoq ixtiro qilingan edi. Charxpalak (suv g'ildiragi)ning ixtiro qilinishi kon ishida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Alohida quvurlar va novlar orqali suv g'ildirakka va uning parakklariga kelib tushar edi, hamda uni aylanishga majbur qilar edi. Bunday sistema ancha chuqurlikdagi ma'danlarni ularni suvga qancha yaqin uzoqligidan qat'iy nazar qazib chiqarish imkonini berar edi. Yangi Charxpalak 14 asrning oxiri XU asrning boshlarida Italiya, Janubiy Frantsiya va Janubiy Germaniyada bir vaqtda paydo bo'ldi.

3. Mayda ishlab chiqaruvchi deqonlarning xalok bo'lishi natijasida qiloq xo'jaligida ham yirik ishlab chiqarish vujudga keladi. Dehqonlarni ekspropriatsiya qilgan Lendlordning (Angliyadagi yirik er egasining nomi) o'zi xo'jalikning kapitalistik asosda olib borib, sobiq dehqonlarni batraklar-yollanma ishchilar sifatida ekspluatatsiya qilardi. Biroq katta er egasi ko'pincha o'z erini pomeschikka katta er rentasi to'lashga qodir va kapitalga ega bo'lgan birorta kattaroq ijarachi fermerga ijarga berishni afzalroq ko'rardi. Yollanma ishchini ekspluatatsiya qilish ham bunday rentaning manbai hisoblanadi.

Yirik fermer xo'jalikni takomillashtirilgan texnikani qullay olar edi. Angliya va Niderlandiya XU1-

XU11 asrlarda uch dalali ekish bilan bir qatorda fermerlar tez-tez ko'p dalali sistemadan hamda yangi ochilgan erga o't ekishdan foydalanar edilar. Ayni vaqtda katta drenaj ishlari o'tkazildi, tuproq go'ng bilangina emas, balki mineral moddalar bilan ham oziqlantirildi, urug'liklar navlarga puxta ajratildi va hokazo.

Biroq mayda hunarmandchilardan ustun bo'lsalarda, ularni tamomila siqib chiqara olmagan markazlashtirilgan manufakturalar singari fermerlar ham shu davrda, odatda dehqon xo'jaliklari bilan yonma-yon yashardilar. Bu narsa ayniqsa Evropa qit'asidagi mamlakatlarga taaluqli. Qiloq xo'jaligining asosiy tovar maxsuloti ko'plab miqdorda ana shu tarqoq dehqon xo'jaliklardan etkazib berilar edi.

4. Ishlab chiqarish usuli o'zgarayotgan, feodalizmdan kapitalizmga o'tilayotgan sharoitda nufuzli ijtimoiy sinfga aylanib borgan burjuaziya qaror topdi. Ayrim shaharlarda yashagan va har xil siyosiy imtiyozga ega bo'lgan shaharliklar hrniga umumiy sinfiy manfaatlarga va bir xildagi siyosiy huquqlarga ega bo'lgan butun milliy ko'lamdagi shahar burjuaziya sinfi vujudga keldi.

Odatda bu sinf mustahkamlanib olgan korol xokimiyati bilan bog'langan bo'lardi. Burjuaziyaning korol xokimiyati bilan ittifoqi tarix jarayonida, o'rta asrning bir necha yuz yillari mobaynida tayyorlanib keldiki, bu davrda korol xokimiyati bilan shahar burjuaziyasi oldida bitta umumiy dushman-yirik feodallar turardi.

Burjuaziyaning boyishi, uning kapitalistlar sinfiga aylanishi tufayli korol xokimiyati unga yanada ko'proq e'tibor bilan qaraydigan bo'ldi.

Biroq XU1 asrdayoq G'arbiy Evropadagi ba'zi mamlakatlarda burjuaziya feodal-absolyut xokimiyati bilan tutashib qoladi. Ik burjuaziya revolyutsiyasining ba'zi xususiyatlari german Reformatsiyasida va XU1 asr boshlaridagi Buyuk dehqonlar urishidayoq namoyon bo'la boshladi. 1640-1660 yillardagi ingliz burjuaziya revolyutsiyasi-eng yirik revolyutsiya bo'ldi. Bu revolyutsiya bilan zamon tarixining davri ochilib, bu davrda kapitalistik ishlab chiqarish usuli hamda burjua ijtimoiy tuzumi Evropada, Amerikada va jahonning qismlarida hukmron bo'ldi.

Nazorat topshiriqlari

- 1.
- 2.

Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.
- 2.

ADABIYOTLAR.

1. SEMENOV V.F. O'rta asrlar tarixi. T.1973.
2. KURBANGALIEVA R.S. O'rta asrlar tarixidan ukuv metodik qo'llanma. M.1980.
3. KRILOV A.A. Srednevekovo'y angliyskiy gorod. M.1949
4. SAPRIGIN Yu.M. Istoriya srednix vekov M 1971

2.Mavzu:Buyuk geografik kashfiyotlar va mustamlakalarning bosib olina boshlashi

Reja

1. Geografik kashfiyotlarning sabablari.

2. Portugaliyaliklarning Hindistonga boradigan dengiz yo`lini ochishlari
3. Kolumbning Amerikani kashf qilishi
4. Magellanning dunyo sayohati. Buyuk geografik kashfiyotlarning iqtisodiy oqibatlari.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Darsning maqsadi:

1. Salb yurishlari vaqtida rivojlangan Levant savdosi o`rta asrlar oxiriga kelib doimiy savdo aloqalari tusini oladi. Sharqdan har xil mollar-ziravorlar (murch, dolchin, qalampir munchoq, muskat yong`og`i va shu singari), qand, zargarlik, attorlik mollari, sharqning har xil matolari va boshqa G`arbiy Evropadagi yuqori va o`rta sinflarning iste'moliga tobora ko`proq kira boradi. Janubiy Italiya, Janubiy Frantsiya, Sharqiy Ispaniya (Kataloniya) shaharlaridagi savdogarlar Sharq bilan savdo qilishi natijasida juda katta boylik to`playdilar. Biroq, XV asrning ikkinchi yarmida O`rta dengiz orqali bo`ladigan savdo qattiq inqirozga uchraydi. Sharq mollari arablar, vizantiyaliklar, italyanlar va boshqa xalqlar qo`lidan o`tganligi tufayli ularning narxi benixoya oshib ketadi. Yaqin Sharqning turklar tomonidan istilo qilinishi Levant savdosini ahvolini yanada mushkullashtirdi. Hindistonga olib boradigan, xali turklar bosib olmagan birdan-bir yo`l Misr orqali va Qizil dengiz orqali boradigan yo`l qolgan edi. Ammo bu yo`lni arablar o`zlariga tamomila monopoliya qilib olgan edilar.

Evropadagi mamlakatlarning savdogarlari Hindistonga boradigan boshqa yo`l topish ustida tobora ko`proq bosh qotira boshladilar. Afsonaviy Hindistonni qidirib topishga evropaliklarni yana bir boshqa sabab ham qiziqtirgan edi. Levant savdosining balansi Evropa uchun foydasiz bo`lib qoldi. Evropa Sharqning qimmatli g`aroyib mollari evaziga o`zining qishloq xo`jalik va o`rmon xo`jaligi mahsulotlarni bera olardi. Evropaning bu mollari har holda Sharq mollariga nisbatan umuman ancha arzon yurar va shuning uchun Sharqdan sotib olinadigan qiymatni qoplay olmas edi. Evropaliklar har yili Sharqqa etmay qolgan summaning muayyn miqdorini qimmatbaho metallar bilan to`lashga majbur bo`lardilar. Natijada, oltin va kumush Evropaga kirmasdi, balki undan Sharq mamlakatlariga chiqib ketar edi. Shu tarzda «oltin problemi» juda tez hal etishni talab qiladigan keskin iqtisodiy problemaga aylandi.

Oltin- oq tanlining o`ziga kashf qilgan yangi qirg`oqqa qadam qo`yishi bilanoq eng avvalo talab qiladigan narsasi bo`lib qoldi.

2. XV asr davomida Portugaliyaliklar mavrlar bilan bo`lgan urush jarayonida va ular bilan olib borilgan savdo sotiq natijasida Afrikaning shimoliy-g`arbiy qirg`oqlariga kirib bordilar. 1415 yili Seutaning istilo qilinishi Portugaliyaliklarga Afrikaning g`arbiy qirg`oq sohili bo`lib janubga tomon siljib borishi uchun muhim baza yaratib berdi. Portugaliyada dengiz sayohatlarida hukumatning o`zi xomiylik qiladi. Infant (shahzoda) Genrix-dengiz sayoxati (1460 yilda vafot etgan) G`arbiy Afrika bo`ylarini tekshirish uchun katta flot qurdi. 1445 yilda shahzoda Genrix xali hayot ekanligida portugaliyaliklar Yashil Burunni ochdilar. Portugaliyaliklar 1486 yilda Afrikaning janubidagi Bortolemo Dias (1459-1500) tomonidan kashf etilgan. Shundan keyin qidirilayotgan Hindistonni topish ham qiyin bo`lmay qoldi. Vasko da Gama (1469-1524) boshchiligida 4 ta kemadan kichik bir flotiliya 1497 yil yozida Lissabondan chiqib 1498 yil bahorida Hindistonning G`arbiy qirg`oqlariga borib etdi va

Kalkutta shahriga tushdi. 1499 yilning avgustida sayyohlar kemalarga oltin va hind ziravorlarini ortib qaytib keldilar. Ikki yil davom etgan mashaqqatli dengiz sayohati vaqtida komandaning 168 a'zosidan faqat 55 kishi tirik qoldi. Vasko da Gamaning kashfiyoti Portugaliyada g'oyat katta ta'sir qoldirdi. Bu kashfiyot munosabati bilan Portugaliya koroli Monoelga (1495-1521) «Baxtiyor» laqabi berildi va «Hindiston hokimi» degan unvon oldi. Portugaliyaliklar Hindistonga Afrikaning G'arbiy qirg'oqlari bo'ylab siljib borayotgan bir paytda, qo'shin Ispaniyada xuddi shu Hindistonga borish yo'lining boshqa bir varianti chiqib qoldi.

3. Genualik Xristofor Kolumb (1451-1506) 1492 yilda Ispaniyaning ferdinand va Izobella xukumatiga Hindistonga g'arb tomondan sayohat loyihasini taklif qildi. Kolumb erning sharsimonligi haqidagi ta'limotga asoslanib ish kurdi. Uch kemadan iborat kichkina eskadra 1492 yilning 3 avgustida Nalos gavanida Atlantika okeaniga jo'nab ketadi. 1492 yil 12 oktyabrda Kolumb Karib dengizida markaziy Amerikaga yaqin joydagi Vagama orollaridan birini topdi. Tezda u katta qo'shin orollar Gaiti va Kuba orollarini kashf etdi. Shundan keyin yo'l sayohatlarining birida Kolumb Janubiy Amerika qirg'oqlarini topdi. Kolumb ochgan qit'a Amerika degan nom boshqa bir Italiya, Florentsiyalik Amerigo Vespuchchi (1452-1512) nomidan olib berildi. U «Yangi erga» bir necha marta sayohat qilib, Janubiy Amerikaning shimoliy-sharqiy qirg'oqlarini batafsil tekshirib chiqdi, uning dengiz sayohatlari to'g'risidagi 1507 yilda nashr etilgan hikoyalar to'plami juda mashhur bo'lib ketdi. Kartograflar Kolumb kashf qilgan erlarni 1507 yildayoq o'z kartalarida «Amerigo eralri» degan umumiy nom bilan ko'rsata boshladilar. Keyinchalik Amerigo degan nomini eski qit'alar-Osiyo, Evropa, Afrika nomlariga monandlashtirib «Amerika» deb o'zgartirdilar.

4. Fernando Magellaning (1470-1521) sayohati geografik kashfiyotlar tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1519 yil 20 sentyabrda Magellaning 5 ta kemasi San-Lukadan chiqib, o'sha paytda «Zaravor orollari» deb atalgan Molukka orollarini qidirib topish maqsadida janubiy g'arbgga tomon yo'l oldi. Uning sayohati 1519-1522 yillarda bo'lib o'tdi va u tarixda birinchi marta dunyo sayyohi bo'ldi. Magellan sayohati natijasida juda ko'p erlar: Janubiy Amerikada Magellan bug'ozida olovli er, ulug' okeanda juda ko'p orollari, Zon Arxepelagi va xokazolar ochildi.

Magellan sayohati erning sharsimon ekanligini tajribada isbot qilib berdi. Buning natijasida Evropaliklar Ulug' yoki Tinch okeani to'g'risida ham aniq ma'lumotga ega bo'ldilar, ammo bungacha ularda allaqanday sirli bir «Janubiy dengiz» haqidagina noaniq tasavvur bor edi xolos.

Geografik kashfiyotlar Evropaning iqtisodiy hayotiga g'oyat katta ta'sir ko'rsatdi. Bu kashfiyotlar natijasida «Jahon bozorining birdan kengayishi, muomaladagi tovarlarning ko'payishi, Osiyo mahsulotlarini va Amerika xazinalarini qo'lga kiritishga intilgan Evropalik millatlar o'rtasida raqobat paydo bo'lishi, mustamlakachilik sistemasi» yuz berdi savdo yo'llari va markazlari butunlay o'zgarib ketdi. Ilgari Evropa savdosida asosiy rol uynagan O'rta dengiz, geografik kashfiyotlardan keyin, o'z ahamiyatini yo'qotadi. Asosiy savdo yo'llari Atlantika okeaniga Shimoliy (nemis) dengiziga ko'chirildi. Ilgari Evropadagi savdo-sotiq ishlari eng taraqqiy qilgan Italiya o'rnini boshqa mamlakatlar Portugaliya, Niderlandiya, va Angliya egalladi. 16 asrda Niderlandiya ayniqsa katta rol o'ynay boshladi. Antverpen

shahri jahon savdosining markazi bo`lib qoldi, jumladan, ziravorlar savdosi deyarli butunlay bu shaharda tuplandi. Biroq 16 asr ikkinchi yarmida Antverpenning ham raqiblari paydo bo`lib qoldi.

Antwerpen bilan raqobat qiluvchi ikkinchi port-London shahri bo`lib, u asosan XVI-XVIII asrlarda g`oyat ravnaq topdi. Evropaga asosan Amerikadan (qisman Hindiston ham) XVI asr davomida juda ko`p oltin va kumush keltirildi. Evropada 100 yil mobaynida kumushning 3 baravardan ziyodroq (206 %), oltinning miqdori ikki baravardan ziyodroq (117 %) oshdi. Mustamlaka sistemasining yoki mustamlakachilikning boshlanishi geografik kashfiyotlarning bevosita natijasi bo`ldi. Biroq mustamlaka sistemasining Evropadagi o`zidagi davlatlarning o`zaro munosabatlarida keskinlikka olib keldi. Bu jihatdan XVI asrning ikkinchi yarmida va XV11 asrdagi ingliz-ispn va ispan-golland urushlari, XVIII asr va XIX asrning boshlaridagi ingliz-frantsuz urushlari ayniqsa xarakterli bo`ldi.

Nazorat topshiriqlari

- 1.
- 2.

Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.
- 2.

ADABIYOTLAR.

- 1.SEMENOV V.F. O`rta asrlar tarixi. T.1973.
- 2.KURBANGALIEVA R.S. O`rta asrlar tarixidan ukuv metodik qo`llanma. M.1980.
- 3.KRILOV A.A. Srednevekovo`y angliyskiy gorod.M.1949
- 4.SAPRIGIN Yu.M. Istoriya srednix vekov M 1971

3. Mavzu: XVI-XVII asrlarda Italiya. 2-soat

Reja

- 1.Italiyada iqtisodiy tushkunlikning bo`shlanishi.
2. Italiyaning siyosiy tarqoqligi
- 3.1527 yilda Rimning talanishi

Tayanch tushuncha va iboralar:

Darsning maqsadi:

1.XVI asrda Italiyada iqtisodiy tushkunlik boshlandi. XV asr oxirlaridayoq italyan sanoatining tushkunlikka uchraganligi sezila boshlandi. Xatto Florentsiyada movutli o`rmini ingliz movuti qisman egallay boshladi. Evropaning o`z sanoati rivojlanib borganligidan italyan movuti u erda kamroq sotiladigan bo`lib qoldi. Angliyadan tashqari, Frantsiya bilan Germaniyada ham sanoat yuksalib bordi. Niderlandiya butun XVI asr davomida savdo va kema qatnovi sohasidagina emas, sanoat sohasida ham tez taraqqiy qildi.

Buyuk geografik kashfiyotlar Italiyaning Sharq bilan olib borayotgan savdosiga qattiq zarba berdi. To`g`ri, Italiyaning savdo oboroti birdaniga kamayib ketmadi. Venetsiya XVI asrdagina emas, balki XV11 asrda ham juda boy savdogarlar respublika bo`lib qolaverdi.

Biroq uning jahon savdosidagi salmoi pasayib ketdi. U endi faqat yaqin sharq mamlakatlari bilan savdo sotiq ishlari olib boradigan bo`lib qoldi. Rivojlanib borayotgan okean mustamlaka savdosidan butunlay chetga qolib ketdi. Savdo va sanoat sohasidan chiqarilayotgan italyan burjuaziyasi bank sudho`rlik operatsiyalariga tobora ko`proq murojaat qila boshladi.

Kapital kuyishning ikkinchi formasi er sotib olish bo`ldi. Burjuaziya er sotib olib, dvoryanlarga aylandi. Sanoat tushkunligi manufaktura ishchilariga ham ta'sir qildi. Mamlakatda sanoat va savdo tushkunligi sharoitida feodal munosabatlar uzoq vaqtgacha mustahkamlanib qoldi.

2.Italiya XU1 asrda siyosiy jihatdan ilgarigidek tarqoq mamlakat bo`lib qolaverdi. Davlatlardan kattaroqlari shimolda Venetsiya, Genuya, Milan hamda Savoyya va Pemont gertsoglari, O`rta Italiyada (1531 yilda Taskaniya gertsogligiga aylantirilgan) Florentsiya va Papa davlati, janubida Sitsiliya ham o`z ichiga olgan Neapol korolligi bo`lgan. Bundan tashqari o`nlab «mustaqil» erlar bo`lgan. Respublika tuzumi deyarli hamma erda deyaroi monarxiya tuzumi bilan almashtirildi. Milanda kondoter Sforts oilasi gertsog unvonini oldi.

Florentsiyada medichilar oilasi avlodi Taskaniya gertsoglari unvoniga ega bo`ldi. Papa oblastida papalar mutloq monarxga aylanib, ular o`z chegaralarini mumkin qadar kengaytirish hamma vositalarni ishga soldilar. Aleksandr 6 Borjia (1492-1503), Yuliy 11 (1503-1513) va Lev X Medichi (1513-1521) o`zlarining dabdabali xayotlari, harbiy va diplomatiya soxasida yurgizgan murakkab sayohatlari, italyan dinastiyalari bilan shaxsiy va nasabiy aloqalarga qaraganda episkoplarda ko`proq dunyoviy xokim edilar. Mayda bo`laklarga ajralib ketgan tarqoq Italiya muttasil fitnalar, yashirin diplomatik makrlar, o`zaro maydo adovat, janjal va urushlar maydonidan iborat edi. 1494 yilda Italiyaga frantsuz feodallari bostirib kira boshladi. Italiya bilan Frantsiya o`rtasidagi urush 60 yildan ortiqroq davom etdi va faqat 1559 yilda to`xtadi. 16 asrning birinchi yarmida xali ham qudratli bo`lgan Turkiya imperiyasiga qarshi kurashda katta kuch sarflashga to`g`ri keldi.

3.XV1 asr boshlarida Italiya urushqoq karol Frantsisk 1 Valua boshchiligidagi frantsuz feodallari nomi bilan tilga olingan imperator Karl V Gabbsburg rahbarligidagi ispan-german feodallari o`rtasida shiddatli urush maydoniga aylandi. 1525 yilda Paya shahri yonida bu ikki dushman o`rtasida qattiq jang bo`ldi. Bu jangda Frantsisk 1 batamom engilib, Karl U uni asir oldi. Papa Kliment V11 ni Gabbsburglarning juda kuchayib ketishidan qo`rqib, imperatorga qarshi Frantsiya bilan Angliya ishtirokida Italiya Koalitatsiyasini tuzishga harakat qildi. Karl V buni bilib qolib, 1527 yilda o`z qo`shinlarini Rimga yubordi. Rim esa anada shavqatsiz ravishda talandi. O`n minglarcha Rim aholisi, shu jumladan, juda ko`p xotin-qizlar va bolalar o`ldirildi.

Landsknextlar papa saroyi Vatikanga kirib uni ham taladilar va ko`p joylarni vayron qildilar. 1527 yil 6 maydagi «talon-taroj kuni» italyan xotirasida uzoq vaqtgacha dahshat va benihoyat katta milliy baxtsizlik kuni bo`lib qoldi. XV1 asrning ikkinchi yarmida ham Italiyaning iqtisodiy tushkunligi davom etdi. Gansburglarning Valua bilan bitim tuzishi natijasida Italiya 1559 yilgi Kato-Kambriziya sulhiga muvofiq uzil-kesil Ispaniya xukmdorligi ostiga o`tdi.

Mamlakatni ichki savdo va sanoati yanada pasaydi. Ayrim shaharlarning aholisi bir necha barobar kamayib ketdi. Feodal dvoryanlar va klerikal elementlarning ahamiyati kuchaydi.

Ispaniyaga qaram bo`lgan neapol karolligi Italiyaning boshqa mamlakatlari ichida eng og`ir

ahvolda qolgan mamlakat edi. Bu mamlakat iqtisodiy jihatdan nihoyatda zaif edi.

Nazorat topshiriqlari

- 1.
- 2.

Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.
- 2.

ADABIYOTLAR.

- 1.SEMENOV V.F. O`rta asrlar tarixi. T.1973.
- 2.KURBANGALIEVA R.S. O`rta asrlar tarixidan ukuv metodik qo`llanma. M.1980.
- 3.KRILOV A.A. Srednevekovo`y angliyskiy gorod.M.1949
- 4.SAPRIGIN Yu.M. Istoriya srednix vekov M 1971

4. Mavzu: Reformatsiya va dehqonlar urushi davrida Germaniya. 2-soat

Reja

- 1.XV asr oxiri XV1 asr boshlarida Germaniyaning iqtisodiy ahvoli
2. Германия реформация
- 2.Reformatsiya arafasida Germaniyaning sinfiy strukturasi.
- 3.XV asr oxiri XV1 asr boshlarida dehqonlar harakati
- 4.Germaniyada katolik cherkovi
- 5.Германия реформация

Tayanch tushuncha va iboralar:

Darsning maqsadi:

1.XIV asr oxiri va XV asrlarda nemis sanoati bir qancha muvofaqiyatlarga erishdi. Kon sanoati va metallurgiya ko'p darajada rivojlandi. Tirol, Gerts, Saksoniya va Vestfaliya kon sanoatining markazlari edi. Metallurgiya ishlab chiqarish (xususan, qurol-yarog`) esa ko'proq Reyn oblasti va yuqori Dunay shaharlarida rivoj topdi. To'qimachilik sanoatining turli soxalari movut to'qish, zig'ir tola, shoyi to'qish va ip gazlama sanoati ham o'sha oblastlarda keng taraqqiy etdi. Keln, Vorms, Aaxen shaharlari, janubda Augsburg, Nyurenberg, Ulm shaharlari eng yirik sanoat markazlari edi. Sanoatda xali asosan sex sistemasi ustunlik qilar edi. Ammo kon sanoatida ancha chuqur shaxtalar ishga solinish munosabati bilan manufaktura usuli tobora ko'proq yoyilib bordi.

XV asrda va XV1 asr boshlarida Germaniya xalqaro savdo-sotiq ishlarida katta rol uynaydi. Uning Italiya, Frantsiya, Niderlandiya, Angliya, Skandinaviya mamlakatlari, Polsha Rossiya olib borgan savdosi muhim ahamiyatga ega edi. Germaniyada juda katta bank-sudxo'rlik firmalari bor edi; bu firmaning bir qismi mablag'lar ishlab chiqarishda (ko'proq kon sanoati) band bo'lsa, bir qismini ular imperatorga va katta knyazlarga qarzga berardilar. Bu firmalar orasida eng kattasi Fuckerlar xonadoni bo'lib, ularning kapitali bir necha mln. gulden hisoblanardi. Biroq Germaniya iqtisodiy jihatdan juda notekis taraqqiy qilmoqda edi. XV1 asrning boshlarida nemis qishloqlarida dehqonlar ommasi uchun nihoyatda ziddiyatli va og'ir vaziyat vujudga keldi. Umuman olganda qishloq xo'jaligida hali ishlab chiqarishning feodal usuli xukmronlik qilar edi.

2.XV1 asr boshlarida Germaniyada sinfiy munosabatlar juda murakkab edi. Bu munosabatlar endi sof feodal munosabatlar bo'lgan edi. Feodal sinflarning o'zlari tabaqalarga ajralmoqda edi.

Germaniya jamiyatning deyarli hamma sinflari xalq ommasining mavjud tuzumlar noroziligi, deqonlarning xatto o`rta sinflarning ham xukmron yuqori tabaqalarga qarshi nafrat bilan qaratilganligi ko`rinib turardi. Shahar aholisiga dastavval shahar arestokriyasi ya'ni patriksiylar kirar edi, ular hali ham bir qancha shaharlarda qokimiyatni o`z qo`llarida saqlar va tashqi savdoda bank sudxo`rlik muammolarida va qisman ichki savdo ishlarida katta rol uynardi. Shahar aholisining o`rta tabaqasi, ya'ni byurgerlar shaharliklarning eng ko`p sonli sinfini tashkil qilar edilar. Bu sinf hunarmandlardan, savdogarlardan va qisman paydo bo`lib kelayotgan manufaktura egalaridan iborat edi. Imperiyaning siyosiy tarqoqligi savdo va sanoatning rivojlanishiga to`sqinlik qilib turgan asosiy g`ov edi. Shakllanayotgan burjuaziya siyosatidagi byurgerlarning manfaatlari nuqtai nazaridan mamlakatni markazlashtirish mutlaqo zarur edi. Ammo nemis byurgerlari burjua sinfi bo`lib xali sira tarkib topmagan edi. Ular tarqoq bo`lib, tor maxalliy manfaatlar doirasidan chetga chiqmay yashar edilar.

German shaharlarida ko`pgina plebey, yarim proletar elementlar bor edi. Qashshoqlashib qolgan sexdan tashqaridagi shahar hunarmandlari ham xalifalar ham krepostniklar zulmiga chidolmay, shaharga kuchib yoki qochib kelgan va bu erda lyumpen proletariatga aylangan dehqonlar ham plebeylar sostaviga kirdilar. Bu besaramjon element patriksiy va byurgerlarni ham kiborlardan, ruxoniylardan bo`lgan feodal pomeschiklarni ham yomon kurardi. Eng ko`p sonli va asosan eksplutatsiya qilinuvchi asosiy sinfiy dehqonlar edi.

3. Dehqonlarning ahvoli yomonlashganligi XU asr va XU1 asr boshlarida dehqonlarning ko`p g`alayonlariga sabab bo`ldi. Sharqiy Frankoniyadagi episkop Vyurtsbergskiy mulkidan 1476 yili ko`tarilgan dehqonlar qo`zg`alonini zamondoshlar birinchi dehqon fitnasi deb ataganlar. Bu qo`zg`alonga Niklas Gauzen qishlog`idan chiqqan gans Begaym degan podachi boshchilik qilgan. U dehqonlarga «Iloxiy qonun»ga ko`ra hamma obroklar, barshinalar, soliqlar va pomeschiklarga boshqa to`lovlar bekor qilinishi shart. Hamma ishlamo`g`i va hech kim boshqalardan ortiq narsaga ega bo`lmasligi kerak, deb tushuntirgan. Deho`onlarning «Boshmoq ittifoqi» deb nom olgan boshqa bir harakati ancha kuchli bo`lib, keng yoyilgan edi. U dehqonlarning fitnachi tashkiloti bo`lib, oradagi uzilishlar bilan 25 yildan ko`proq vaqt ish olib borgan. Nihoyat XU1 asrning boshida taxminan 1503 yilda Vyurtenbergda dehqonlarning «Qashshoq Konrat» degan nom bilan yana bir revolyutsion tashkiloti paydo bo`ldi. 1514 yilda uning fitnasi Vyurtenberg gertsogiga qarshi ochiqdan-ochiq qo`zg`alonga aylanib ketdi. Bu harakatda shaqarliklar ham qatnashdi. Boshqa mamlakatlarga qaraganda, Germaniyada juda katta imtiyozlarga ega bo`lib olgan edi. XU1 asr boshlarida 20 dan ortiq German prolati (arxiopiskoplar, spiskoplar, qisman katta monastirlarning abbatlari) ayni paytada territorial imperiya knyazi ham edi. Rim papasi Germaniyadan juda katta pul olardi Agar Frantsiya, Angliya va Ispaniyada kuchli korol xokimiyati mavjud bo`lganligidan papa kuriyasiga beriladigan to`lovlar ozmi-ko`pmi ba'zan ancha cheklangan bo`lsa, Germaniyada imperator xokimiyatining tushkunlikka uchraganligi papaning bu mamlakatni istaganicha bemalol eksplutatsiya qilishga imkoniyat berdi. German jamiyatidagi xilma-xil sinflar Rim bilan tashkiliy bog`lanib mustaqil ish kuruvchi va ruqoniylarga dushman ko`zi bilan ko`rardilar. Dunyoviy knyazlar va ritsarlar cherkov mulklarini musodara qilib davlat ixtiyoriga olishni orzu qilar edi. «Jun cherkov» tuzishdan manfaatdor bo`lgan shaharliklar Rimga beriladigan og`ir to`lovlarga xotima berish, soloviechilik asosida yashab kelayotgan ruhoniylarni tugatish va cherkov jamoalarining ishlariga bevosita rahbarlikni byurgerlarga topshirish uchun kurashardilar. Shunday qilib, Germaniya cherkov masalasi umumxalq milliy masalasi tusini olgan edi. Shuning uchun nemis byurgerlari oppozitsiyasining namoyondalari o`z nayzalarini birinchi navbatda katolik cherkoviga

qarshi qaratganliklari emas edi.

Nazorat topshiriqlari

- 1.
- 2.

Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.
- 2.

ADABIYOTLAR.

- 1.SEMENOV V.F. O`rta asrlar tarixi. T.1973.
- 2.KURBANGALIEVA R.S. O`rta asrlar tarixidan ukuv metodik qo`llanma. M.1980.
- 3.KRILOV A.A. Srednevekovoy angliyskiy gorod.M.1949
- 4.SAPRIGIN Yu.M. Istoriya srednix vekov M 1971

6. Mavzu: XU1-XU11 asrlarda Ispaniya. 2-soat

Reja

- 1.Karl 1 davrida Ispaniya erlari
- 2.Kommuneros qo`zg`aloni
- 3.Filipp 11 davrida Filipp 11 ning urushlari.
- 4.XV1- XV11 asrlarda Ispaniya madaniyati

Tayanch tushuncha va iboralar:

Darsning maqsadi:

1.XV1 asr boshlarida ferdinand va Izobella birlashtirish siyosatini olib borganliklari natijasida Ispaniya Pirineya Yarim orolining bir qismini (Portugaliyadan tashqari) emas, balki Italiyaning anchagina qismini (Sitsiliya va Sardiniya orollarini, Neapal korolligini) ham o`ziga qo`shib oldi. Ferdinand bilan Izobellaning nevarasi, ularning qizi Xuannaning o`g`li Karl Gababurg Ferdinand o`lgandan keyin 1516 yilda ana shu erlarning hammasini meros oldi va ularga «Burgundid merosi» deb atalmish erlarni, ya'ni Nedirlandiyan, Lyuksemburg gertsogligini va Frantskonti oblastlarni qo`shib oldi. Keyinchalik u frantsuz koroli Frantsisk bilan olib borilgan urush davomida Milanni hamda Shimoliy Italiyaning boshqa bir qancha erlarni ham qo`shib oldi. 1535 yilda u Tunisni bosib oldi. Ispaniya er sharining ikkala tomonga joylashgan jahon davlatiga aylangan. Ispan korolining erlarida «Quyosh sira botmasdi» Gabsburglarning vujudga kelgan ko`p millatli juda katta imperiyasida Ispaniya muhim o`rin tutardi. U xatto o`z miqiyosi jihatidan Buyuk Karl imperiyasining erlaridan ham ancha kengayib ketgan edi. Ammo Gabsburglarning agressiv «Jahon» siyosati Ispaniyaning milliy manfaatlarini nazarda tutmas edi. Ispan xalqiga German feodallari bilan tuzilgan ittifoqdan real foyda olish o`ringa Karl U ning buyuk davlatchilik siyosati uchun qilingan xujjatini xarajatlarini qoplashga to`g`ri kelgan edi.

Karl V Ispaniyada korollik qila boshlagan dastlabki paytida kommuneros qo`zg`aloni nomi bilan mashhur bo`lgan katta qo`zg`alon bo`lib o`tdi. Mamlakat ferdinand bilan Izobella davrida birlashgan bo`lsada, XV1 asr boshida Ispaniyaning sud ishlari juda va ma'muriy ishlarida juda ham xilma-xillik saqlanib qolavergan edi. Kastiliya shaharlari «ajnabiy xukumat» ga ayniqsa chuqur nafrat bilan qaradi. 1520 yil 29 iyulda Kastiliyaning II shahri

«Mukaddas Xunta» nomi bilan revolyutsion ittifoq tuzdi. Xunta markazi Avila shahri edi. Shaharlarga dvoryanlarning bir qismi xattl ruxoniylarning ham ayrim qismi qo`shildi. Qo`zg`alonga Toledo shahri bilan bog`liq bo`lgan dvoryan Xuan de Badiliya, shoir (bu ham shaharlik) Pedro Leso hamda episkop Xuan de Akunya rahbarlik qildilar.

Avvaliga xukmi qo`zg`aloni tezda bostirishni mo`ljallab uning ko`lamiga etarli baho bermagan edi. Ko`p o`tmay u o`z xatosini tushundi. Segoviya shaharni zo`rlik bilan bosib olmoqchi bo`lgan edi, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Qo`zg`alonchilar xukumati qo`shinlarning xukumini qaytardilar. Biroz vaqtdan keyin korol qo`shini Medina de Kampo shahrini bosib oldilar va taladilar. Bu shahar o`sha paytda Kastiliyaning asosiy savdo markazi edi. 1520 yilning yoz oxiriga borib ayniqsa, kengayib ketdi, deyarli butun Kastiliyani qamrab oldi. Valyadoliyadagi korollik kengashib o`z ishini to`xtatdi. Kastiliya bir qancha vaqtgacha korollik xukumatining ta'siridan chiqdi. Biroq o`z sotsial sostavi jihatdan harakat juda xilma-xil edi. Grantlarning bir qismi boshqa xarakterga biroz xayrixox bildirgan bo`lsada, ham undan tez orada chetlashdi. Karl ularning ikki vakilini Andreanga yordamchi qilib tayinlagandan so`ng xarakterdan yuz o`girdi. Korol xukumati aristokratlarga suyanib, shahar militsiyasi va kichik dehqon lashkarlaridan iborat qo`zg`alonchilarning otryadlarini tor-mor qildi. 1521 yil 23 aprelda Vilyamlar yonida hal qiluvchi qat'iy jang bo`ldi. Qo`zg`alonchilar asir olingan yo`lboshchilari qatl etildi. Ammo ayrim shaharlar uzoq vaqtgacha qarshilik ko`rsatib turdilar. Toledo shahri 1521 yil 25 oktyabrgacha o`zini mudofaa qilib turdi. Bu shaharning mudofaasida Padilyaning xotini-Mariya aktiv qatnashgan edi.

1556 yilda Karl V dan keyin uning o`g`li Filipp Ispaniya taxtia o`tirdi. Filipp II o`z otasiga o`xshab (joydan qimirlamaydigan) emas edi U ham juda ko`p urushlar olib borgan bo`lsada, ammo bu urushlarda odatda uning generallar qo`mondonlik qilar edi.

Karl o`zi bo`lsada, o`z malakasini hech qachon deyarli tashlab ketmas edi. Filipp mamlakatni markazlashtirish yo`lida ba'zi tadbirlarni ko`rdi. Chunonchi, u Ispaniyaning yangi doimiy poytaxtini barpo qildi. Poytaxt uchun Madrid shahrini tanladi. U Aragonni avtonomiyadan mahrum etdi. Sarabossani va Kastiliya garnizonlariga ega bo`lgan aragon qal'alarini egallab oldi hamda Arabon dvoryanlarini sud sohasidagi eski imtiyozlarini bitirdi, ya'ni ularning sud ishlari o`zlarining maxsus Oliy sudyasi bo`lgan Kustitsiyada ko`rilmaydigan bo`ldi. 1580 yilda u Portugaliya ham o`z erlariga qo`shib olishga muvaffaq bo`ldi. Endilikda butun Pireneya yarim oroli yagona davlatga birlashtirilgan edi.

Inkvizitsiya Filipp 11 davrida eng dahshatli qurol edi. Bu inkvizitsiya Filipp 11 davrida Ispaniyadagi Oliy siyosiy sudga aylandi. Bu suddan korolning hech bir dushmani qochib qutula olmasdi. Davlatni idora qilish ishlari bilan korol shaxsan o`zi juda ko`p shug`ullanar edi. Markazdagi Oliy amaldorlarni va joylardagi gubernatorlarni shaxsan o`zi tanlab qo`yar edi. Filipp 11 davrida soliqlarning miqdori juda ko`payib ketdi. Filipp olib borgan urushlar ochiqdan ochiq dinastik urushlar, tor dvoryanlik to`g`risidagi, o`zining ideologiyasi jihatidan reaksion-katolik xarakterdagi urushlar edi. Bu urushlar Ispan korolining erlarini ko`paytirish va korolni Evropaning xalqaro siyosatida gegemon qilish maqsadida olib borilgan edi. Shu bilan bir paytda bu urushdan ispan dvoryanlarini boyitish maqsadida ham ko`zda tutilardi, bu dvoryanlarning zebi-ziynati va aysh-ishrat ichida kechirayotgan dabdabali xayotlari uchun ispan dehqonlaridan olinadigan renta xalqlarigina kifoya qilmas edi. Ba'zi urushlarda (masalan, Angliya bilan bo`lgan urushda) ispan savdosi va mustamlakalarning manfaatlari ko`zda tutilgan edi. Xuddi ana

shu urushlarda Filip 11 ning xukumati sharmandalarcha yutqazdi va shunday qilib, bu urushlar ham ispan burjuaziyasiga ham hech narsa keltirmadi. Filipp 11 olib borgan ba'zi urushlarga muvaffaqiyatli tugadi.

60-70 yillarda Turkiyaga qarshi olib borgan urushni va 1580 yilda Portugaliyaning bosib olinishini shunday urushlar jumlasiga kiritish mumkin. 1571 yilda Lepanto yonida bo'lgan jangda turklar dengizida ayniqsa katta mag'lubiyatga uchratildi. Ammo Filipp 11 ning ham o'zi shunday mag'lubiyatga uchradiki, bu mag'lubiyatlar Ispaniyaning buyuk davlat sifatidagi ahamiyatini butunlay yo'qotdi.

4.Испан халқи ХУ-ХУ1 асрларда жуда катта маданий бойликлар яратди. «Дон-Кихот Ламанчский» деган машхур сатирик романнинг автори генерал ёзувчи Мигель де Сервантес (1547-1616) ыз асарини ХУ1 асрнинг охири ХУ11 асрнинг бошида ёзган эди. Романнинг биринчи томи 1605 йилда, иккинчи томи 1615 йилда босилиб чиқди.

Servantesning romani kengayib gumanizmning mashhur realistik asari bo'lib, tarixiy yodgorlik sifatida ham mashhurdir. Ayni mana shu asarda feodal Ispaniyaning ijtimoiy tuzumi, o'rta asr ritlarining aynishi, klerikalizmning zo'ravonligini, xalq ommasining qashshoqligini yorqin aks ettirilgandir. Ispaniyaning ikki mashhur dramaturgi Lope de Vege (1562-1635) va Pedro Calderon (1600-1681) asarlari butun dunyoga mashhur bo'lib ketdi.

XU11 asrda Ispaniyada Bartolemeo Estiban Murilo (1617-1682) va Dego Rodrigas Vilaskes (1599-1660) kabi butun jahonga mashhur bo'lgan rassomlar ham etishib chiqdi. Murilo badiiy jihatdan Rafaening madonnalaridan bir necha klassik madonnalarini suratini yaratgandir. U bolalarni tasvirlashda ham buyuk usta edi. Vilaskis dabdabali potret ustasi bo'lgan: «Jun yig'ishtiruvchilar», «Breda shahrining olinishi» kartinalari g'oyat mashhurdir. XU1 asrdagi Ispaniyaning arxetiktura sohasidagi katta yodgorliklardan biri Eskorial monastir saroyidir. Madrid yaqinida Filipp 11 o'urdigan bu saroy unga qarorgoh bo'lib xizmat qilgan. XU11 asrda milliy muzeyga aylantirilib, ispan rassomchilik san'atining eng go'zal asarlari shu muzey zallarida to'plangan edi.

Nazorat topshiriqlari

- 1.
- 2.

Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.
- 2.

ADABIYOTLAR.

- 1.SEMENOV V.F. O'rta asrlar tarixi. T.1973.
- 2.KURBANGALIEVA R.S. O'rta asrlar tarixidan ukuv metodik qo'llanma. M.1980.
- 3.KRILOV A.A. Srednevekovoy angliyskiy gorod.M.1949
- 4.SAPRIGIN Yu.M. Istoriya srednix vekov M 1971

7. Mavzu:Niderlandiya revolyutsiyasi. 2-soat

Reja

- 1.XV asr oxiri XVI asr boshlarida Niderlandiyaning iqtisodiy taraqqiyoti
- 2.Niderlandiyaning siyosiy tuzumi
- 3.Niderlandiya revolyutsiyasining boshlanishi. Albenning terrori
- 4.Gyozlarning chiqishi.Shimoldagi qo'zg'alon.1577-1578 yillarda janubda sinfiy kurashning keskinlashuvi.
- 5.Arras va Utrextniyalari. Vilgelm Oranskiyning xalokati

6. Niderlandiya revolyutsiyasining tarixiy ahamiyati va xarakteri.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Darsning maqsadi:

1. Oʻrta asrlarda Niderlandiya toʻgʻrisida, gapirilganda Reyn, Maas va Shelda daryolarining quyi oqimidagi va Shimoliy dengiz buylaridagi «etak erlar» (Niderlandiya soʻzining asl tarjimai shundaydir) nazarda tutilar edi. Bundan ilgari dayoq bu erlar (Yuqori Lotaringiyadan va uning Mets, Giul, Verden va shu singari shaharlaridan) farq qilib quyi Lotaringiya deb atashar edi. Bu ulkaning sanoat jihatidan oldinroq taraqqiy qilishi uning xarakterli xususiyati edi. Friz movutlari Buyuk Karl zamonidayoq dong chiqargan edi. XI-XII asrlarda Fladriya (Flamand) movut sanoati bilan raqobat qila olar edi, xolos. «Flanriyaning eski obod shaharlari» boʻlmish Bryugge, Ipr, Gent shaharlariga ingliz, frantsuz va nemis shaharlarining uzoq vaqtgacha xavasi kelib yurdi, chunki ular yuqori sifatli movut ishlab chiqara olmas edi. XU asrda Flanriyada Antverpen degan yangi sanoat va savdo markazi oʻsib chiqdi. Bu shahar Sheller daryosining dengiziga oʻuyiladigan joyidan sal naribroqda edi. Bu geografik kashfiyotlar natijasida Antverden Qindiston va Amerikadagi mustamlakalar bilan jonlangan jahon portiga aylandi. Ammo Antverpe sanoat markazi sifatida ham taraqqiy qildi. Shu bilan birga, Flanriyaning eski shaharlaridan farq qilib, Antverpenda ishlab chiqarishning sex formasi emas, balki manufaktura formasi rivojlandi. Manufaktura formasi esa qishloqdagi xonaki, kapitalistik kustar sanoatiga asoslangan edi.

Flanriya bilan qoʻshin boʻlgan Barabandda XU-XU1 asrlarda Bryusel kattagina sanoat markazi hisoblanar edi, bunda ham movut ishlab chiqarish sanoatining bir qismi sex sanoati xarakterida, bir qismi manufaktura sanoati xarakterida edi. Flandriya bilan Braband janubiy Niderlandiyaning asosiy viloyatlari boʻlib, ular iqtisodiy jihatdan ancha taraqqiy qilgan edi. Niderlandiyaning janubida Namyur, Lech, Lyuksemburgda boy temir konlari boʻlib, bu erda metallurgiya sanoati keng koʻlamda rivojlangan edi. Frantsiyaga yondosh boʻlgan janubiy-gʻarbiy oblastlar Gennegau artua. Aksincha dehqonchilik oblastlari edi. Shimolda esa eng taraqqiy qilgan viloyatlar Zellandiya, Gollandiya va Utrexuer edi. Bu erda ham movut sanoti rivojlanayotgan edi. Bundan tashqari zigʻir tolasidan gazlama tukini, surp va shoyi toʻqish sanoati ancha taraqqiy qildi. Savdo viloyati boʻlgan gollandiya kemasozlik, paraxodchilik va baliq ovlashning markazi edi. Amsterdam okean orqali savdo, kredit operatsiyalari va birja bitimlari jihatidan antverienning jiddiy raqobatchisi boʻlib qoldi.

2. Oʻrta asrlar davrida Niderlandiya bir necha oʻnlab mayda feodal davlatlaridan Gertsogliklardan, grafliklardan, spiskopliklardan va boshqa shu singarilardan iborat edi. Ularning bir qismi Frantsuz feodal monarxiyasi sistemasiga kirgan edi. XI-XU asrlar davomida Burgundiya gertsoglari Niderlandiyaning turli erlarini oʻz qoʻl ostida birlashtira oldilar. 1477 yilda Burgundiya gertsogligining oʻzi Frantsuz koroli Lyudovik XI ning qoʻliga oʻtgandan keyin Niderlandiya erlari Mariya Bargunskayaning (Karl jasurning qizi) eri boʻlmish Maksimeliyan Gansburgga tegdi. XU1 asr boshlarida boshqa bir dinastiyaning nikohi natijasida, yaʼni Maksimiliyaning oʻgʻli Filipp I ning Xuanaga uylanish natijasida (Xuan-Ferdinand Aragonskiy bilan Izobella Kastilskayaning qizi edi) Niderlandiya Ispaniyaga oʻtdi. Filipp I bilan Xuananing oʻgʻli Karl I Gent shahrida tugʻildi, lamant tili uning ona tili edi. Karl U zamonida Niderlandiyaning siyosiy tuzumi oʻziga xos bir oʻtkinchi xarakterda edi. Gabbsburglar xonadonidan chiqqan korol-imperatorning oliy xokimiyati ostidagi Niderlandiya hali oʻzining idora qilish elementlarini saqlab qolgan edi.

Niderlandiyadagi 17 viloyatning har birida o'z proporsional shtatlari, alohida sudlari mahalliy osoloviechilik imtiyozlari, qisman shaharlarning o'ziga xos ko'pdan-ko'p engiliklari bor edi.

1464 yildan, ya'ni burgundiya gertsoglari zamonidayoq Bosh shtatlar majlis ko'ra boshlagan edi. Bosh shtatlar viloyat shtatlarning vakillaridan iborat bo'lar edi. Burgundiya gertsoglari davrida bo'lganligi kabi, gabsburglar davrida ham soliqlar joriy qilish masalalarini Bosh shtatlar xal qilardi. Bu vaqtga kelib har qanday aqamiyatini yo'qotgan frantsuz Bosh shtatlarining aksincha, Niderlandiyaning Bosh shtatlari Sloveliyali vakillar majlisi sifatida muntazam suratda chaqirilib turardi, lekin shuni aytish kerakki, Bosh shtatlarni chaqirish endi korol ixtiyorida edi. 1539 yilda xalqqa soliqlar solish bilan uni qo'rqitmoqchi bo'lganda, korol tug'ilib usgan gent shahrida qo'zg'alon chiqdi, imperator buning uchun jazo tariqasida shaharni hamma eski partiyalarida mahrum qildi va undan shtraf tulattirdi. Niderlandiyada Karl U undirgan jami soliqlar 2 mln oltin pulga etdi, xolbuki Karl U o'ziga qarashli barcha erlardan uning xazinasiga tushadigan daromad 5 mln oltinga barobar edi. Niderlandiyani idora qilishni markazlashtirish masalasida Karl U ba'zi bir ishlar qildi. U Niderlandiyaning chegarasini kengaytirdi, barcha viloyatlar uchun umumiy bir xukumat va bitta markaziy kengash sud va moliya kengashlari, (Bryuselda) tashkil qildi. Uning xomiyligida yirik burjuaziya, ayniqsa Antverpen shahridagi yirik burjuaziya Ispaniya va Germaniya bilan olib borilgan savdo-sotiqdan katta foyda olardi. Ammo Niderlandiya erlarining Gabbsburglar monarxiyasi sostaviga kirganligidan keladigan bu va shunga o'xshash ba'zi bir boshqa foydalardan ko'ra Gabbsburglar davlat xazinasini behad talashi natijasida kelgan zarar ancha ortib ketardi. Karl U korollik qilgan zamonda Niderlandiya amalda Ispaniyaning bir viloyatiga aylana bordi va agar Niderlandiya gullab-yashnagan ekan, bundan faqat Ispaniya baxramand bo'lar edi. Ammo iqtisodiy jihatdan taraqqiy qilgan ilg'or Niderlandiyada aholi protentantizimning juda xilma-xil formalari oldinroq e'tiqod quygan edi. Yirik dvoryanlar mu'tadil Lyuteranlikni 2 afzal kurardilar o'rta va mayda dvoryanlar va ayniqsa shaharliklar kalvanizmni afzal kurardilar. Boy-dexqonlar ham Kalvinizmga moyil edilar.

Shaharlardagi plebey elementlari orasida hammadan ko'ra anabantizim shuhrat qozondi. Ispan absalyutizimida Niderlandiya burjuaziyasigina emas, balki keng aholining ham noroziligi tobora keskin va yaqqol milliy tus ola boshladi.

Ispan xukmronligi norozilikning tobora keskin va yaqqol va milliy tus ola boshladi.

Ispan xukmronligi noroziligining tobora chuqurlashib borishi tez kunda ispan absalyutizmiga qarshi oppozitsion chiqishlarda o'z ifodasini topdi. Xukmdor Marvarita xuzuridagi davlat kengashining a'zolari bo'lgan va niderlandiyaning eng yirik aristokratlaridan Vilgelm oranskiy, graf Edmon va admiral Goori Filipp 11 xukumatiga birinchi bo'lib qarshi chiqdilar. Aristokratik oppazitsiyaning chiqishi batamom loyyal xarakteridagi chiqish edi. Ispaniyadan ajralib chiqishi Filipp 11 ga bosh ko'tarish aristokratlarning xayoliga ham kelgani yo'q. Oranskiy va uning do'stlari Niderlandiyada spiskoplar sonining oshirilishiga va ularning inkvizitorlik xokimiyatiga norozilik bildirdilar.

1565 yilda, dvoryanlar bitimi degan nom ostida dvoryanlar ittifoqi tashkil topdi. V.Oranskiy bu ittifoqni tashkil etishda bevosita ishtirko edi. Ittifoqda dvoryanlardan 2 mingga yaqin kishi a'zo bo'lib kirdi, ularning bir qismi kalvinistlardan, bir qismi esa kalvinizm bilan kelishishga

moyil bo'lgan katoliklardan iborat edi. Birlashgan dvoryanlar delegatsiyasi 1566 yil 3 aprelda xukmdor Margarita Parmskayaga petitsiya topshirdi: bu petitsiyada bir tomondan, Ispaniyaning xartai oliy koroliga bo'lgan sadoqat izxor qilingan bo'lsada, ikkinchi tomondan inkvizitsiyani bekor qilish va darhol Bosh shtatlarni charish talab qilingan edi. Delegatsiyaning ko'pchiligi bo'lib kelishidan xukmdor qo'rqib qolgan edi.

Dvoryanlardan ibrat olgan kalvinchi burjuaziya savdogarlar bitimi degan nom ostida o'z ittifoqini tuzdi. Kalvinizm tez yoyila boshladi. Amalda esa, xukumat kalvinistlarni ta'qib qilishga endi botinolmay qoldi. Mamlakatda revolyutsiya boshlandi. Ispan absolyutizmga va kotolik cherkoviga qarshi xarakatga shahar va qishloqlarning keng ommasi qo'shildi.

3.Margarita Parmskaya o'rniga kelgan Alba akkupatsiya qilingan mamlakatda qonho'rlik rejimi o'rnatildi. Ko'plab qamoqqa olish, qatl qilish va mol-mulkini musodara qilishlar boshlandi. Xato aristokratik oppozitsiyani mu'tadil rahbarlari bo'lgan Egmont bilan goorn ham 1568 yilda yozda qatl qilindilar. Anverpen shahrining burgomistiri Van-Stralening boshi kesildi. Albaning o'zi raislik qilgan «G'alayonlarni tekshiruvchi kengash» degan favqulodda tribunal ayblanuvchilarga faqat birgina jazo berar edi- u ham bo'lsa o'lim jazosi edi. U idora qilgan davrda 8 mingdan ortiq qatl qilindi. U Niderlandiyani Ispaniyaning tamomila itoatgo'y provintsiyasiga aylantirmoqchi edi. Alba shtatlarning roziligini olmasdanoq ko'rsatilgan soliqlarni 1571 yildan e'tiboran joriy qildi. Shundan keyin Niderlandiya savdogarlari o'z va manufakturachilari orasida ko'pgina odamlar darhol sinib, xonavayron bo'la boshladi. Ispaniya bilan Angliya o'rtasida urush chiqqanligi tufayli Alba Niderlandiya savdogarlariga Angliya bilan har qanday savdo qilishni ta'qiqlagandan so'ng, sinib xonavayron bo'lish xollari yanada ko'paydi. Albaning yurgizayotgan siyosati Niderlandiya iqtisodiyoti uchun xalokatli oqibatlariga olib kelishini aytganlarida, u «iblis va uning xomiylari bo'lgan eretiklar uchun gullayotgan davlatga ega bo'lgandan ko'ra xudo va korol uchun ta'qirlashgan va xatto xonavayron bo'lgan davlatni saqlab qolish yaxshiroqdir» deb javob bergan.

Niderlandiyada bamisoli qabristonlik jimjitlik xukm surar edi. Har qanday oppozitsiyani ovozi uchgn edi. Ispan soldatlari o'zlarini xuddi istilo qilingan mamlakatlarddek xis qilardilar. V.Oranskiyning o'zi Germaniyadagi erlariga (Germaniya shimoliy-g'arbidagi nassau knyazligiga) o'z vaqtida jo'nab ketishga muvaffaq bo'ldi. Axvol bir necha yilgacha shu zaylda davom etdi. Ammo xuddi shu yillar ichida aktivroq elementlar Albaga qarshi qo'zg'alon tayyorladilar.

4.1565-1566 yillardagi xarakat qatnashchilarni bir qismi mamlakatni tashlab chiqib, dengiz partizanlariga La-Mansh va boshqa qo'shni dengizlarda suzib yurib, ispan kemalarga xujumlar qilib turgan dengiz gayozlariga aylandilar. Boshqalari mamlakat ichida qolib o'rmonlarda bekindilar, ular o'sha erdan turib Ispaniyaning mayda-chuyda garnizonlariga qarshi partizanlik kurashi olib borar, Ispan ma'muriyatining xalq juda yomon ko'rgan agentlarini o'ldirdilar. Xalq gyozlarini xalqning qasoschilari deb bilar edi, ularning shoni tobora o'sib bordi. 1568 yil yozida V.Oranskiy Germaniyadan turib Albaga qarshi harbiy hujum tashkil etishga xarakat qildi. 30 ming kishilik yollanma qo'shin bilan Niderlandiya territoriyasiga bostirib kirdi, ammo mag'lubiyatga uchrab chekinishga majbur bo'ldi. Shundan keyin shahzoda Ispaniyaga qarshi kurashga yordam olish umidida ingliz korolevasi

Elizaveta va Frantsuz gugenotlari bilan muzokaralar olib borishga kirishdi. U o'z qo'shinlarini chet ellardan o'nlab, ularga o'z meros mablag'lari xisobidan, qisman Antverpen va Amsterdam burjuaziyasidan olinadigan mablag'lar hisobidan ham tuladi. Mu'atadil burjuaziya dvoryanlar oppoziyasi rahbarlarning bunday taktikasi muvaffaqiyatga olib kela olmadi, albatta. 1572 yil bahorida gyoziar boshchiligida shimoldagi demokratik elementlar qo'zg'aloniga axvolni tubdan o'zgartirib, keng umum Niderlandiya revolyutsiyasini boshlab berdi. Mayda dvoryan lume boshchiligidagi dengiz gyoziarlari otryadi 1572 yil 1 aprelda Zellandiyadagi Bril degan kichik bir shaharni bosib oldi.

Maxalliy-shaharliklar, tevarak atrofdagi dexqonlar, baliqchilar mayda dvoryanlar gyoziarlarga kelib qo'shildi. Bir yildan keyin xarakat butun zellandiyaga, Gollandiyaga va Shimoldagi boshqa viloyatlarga tez yoyildi. Xamma joyda Ispan gornizonlari qurolsizlantirildi va asir qilib olindi. Sanoat shahri bo'lgan Utrext ispanlarga qarshi kurashning asosiy markazlaridan biriga aylandi, bu erda xarakat xatto bir muncha ilgariroq boshlangan edi.

5.Qo'zg'alonchi aholi Alba tazyiqlaridan qo'rqib, V.Oranskiydan yordam talab qildi. U Niderlandiya qiroli, dastlab gilderi viloyatiga, so'ngra esa Brabantga kirdi. Bu erda u Byusselga yaqinlashib qolgan edi. (1572 yil avgust). Ammo u o'zining Parijdagi ittifoqchilari bo'lgan gugenotlarning qirg'in qilingani (Farfamoley kechasi) shu erda eshitib qolib, Albaga operatsiyalar o'tkazishga o'z kuchlari etarli emasligini payqadi va orqaga chekindi.

Tez orada u Gollandiyani keyin esa Zellandiya, Frislandiya va Utrexnning noibi (shatgelteri) deb e'lon qildi. Shu zaylda Niderlandiyaning shimolida aslida davlat tashkil topdi. U Filipp 11 ni faqat nomigagina o'zining koroli deb hisoblab kelmoqda edi. Qo'zg'alon ko'targan shaharlarga alba qattiq qaxr g'azabi bilan hujum qildi. Ular orasida Mono shahrini va Niderlandiyaning diniy poytaxti bo'lgan Mexeln shahrini juda qam yaxshiyona suratda talattirdi. Alba bu erdan shimoliy viloyatlarga jo'nadi. Ispan qo'shinlari Gollandiyaning Alkmaar degan shahrini qamal qildi. Lekin, shahar xalqi qattiq qarshilik ko'rsatganligi tufayli qamal buzildi (1573 yil oktyabr). 1573 yil dekabrda Alba Ispaniyaga chaqirib olindi.

Uning o'rnga ancha epchil diplomat general rekezens tayinlandi va unga isyonchilarga qarshi urush xarakatlarini to'xtatmay, davom ettirgan xolda Ispaniyaga qarshi xarakatni bo'lib yuborish va ikkilanib turgan sotsial elementlarni Ispaniya tomonida saqlab qolish to'g'risida yo'l-yo'riq berilgan edi. 1574 yil baxorida V.Oranskiyning ukasi-Lyudovik Nassauskiy ko'p sonli, ammo ta'lim ko'rmagan va intizomsiz yollanma qo'shinlar bilan Rekezensga qarshi xarakat boshladi. 1574 yil 14 aprelda Mook yonida bo'lgan jangda Lyudovik engildi. Gollandiya shtatlari oxirgi chorani qo'llashiga ya'ni, qamaldagilarga yordam berish uchun tugunni ochib yuborishga qaror qildi. Bu tadbir muvaffaqiyatli bo'lib chiqdi.

Gollandiya flotining kemalari Leydin yaqiniga kela oldilar. Ispanlar chekinishga majbur bo'ldilar. Qahramon Leydin shahri qutilib qoldi. G'alayonlarni tekshiruvchi kengash o'lim jazosi berish to'g'risidagi xukmlar chiqarma quydi, faqat

shtraflar solish bilan chegaralanib qo`yildi. Oranskiy partiyasidan chiqib ketganlarning qammasiga avf umumiy berildi, deb e'lon qilindi. Oranskiychilarning soni faqat shimoldagina emas, balki janubda ham kupayib bordi.

Artau va gennegau viloyatlaridagi dvoryanlar 1579 yil 6 yanvarda Arras shahrida viloyat shtablarining birlashgan sezida dvoryanlar Arras Uniyasi nomi bilan alohida bitim ishlab chiqdilar. Shimoliy viloyatlar janubiy viloyatlarda yuz bergan siljishlarni e'tibor bilan kuzatib bordilar va ulardan o`zlariga tegishli xulosa chiqarib oldilar. Urrexr Uniyasi tutqilanibroq Filipp 11 Ispankiyning oliy xokimiyatiga rasmiy ravishda saqlab keldi. Biroq, ikkilanish uzoqqa bormadi. 1581 yilda Delft shahrida to`plangan Bosh shtatlarning qaroi bilan Filipp 11 o`z fuqarolarining manfaatlarini mensimay ish kuruvchi mustabid sifatida ag`darib tashlandi. Shimoliy Niderlandiya, garchi maxsus ravishda respublika deb e'lon qilinmagan bo`lsa ham aslida u respublikaga aylangan edi.

Filipp 11 1580 yildan boshlab V.Oranskiyning qonundan tashqari deb e'lon qildi. Oranskiyni o`ldirib, uning boshini olib kelgan qotilga 25 ming kron mukofot va'da qilindi, uning maqsadi 1584 yil 10 iyunda amalga oshdi. Burgundiyalik Bartaloneo Jerar degan kishi o`zini frantsuz xonadonining shtatlarga yuborgan elchisi qilib ko`rsatib, shaxzodaning saroyiga suqulib kirdi va uni o`z kabinetida to`pponcha bilan otib o`ldirdi.

6.XVI asrdagi Niderlandiya revolyutsiyasi katta tarixiy aqamiyatga ega bo`ldi. Bu revolyutsiya milliy-ozodlik kurashi bayrog`i ostida nisbatan bir kichik territoriya avj olgan bo`lsada, lekin u Evropa miqiyosida birinchi marta g`alaba qilgan burjuaziya revolyutsiyasi edi. Revolyutsiya natijasida yangi burjuaziya davlati- Birlashgan viloyatlar respublikasi yoki Gollandiya tashkil topdi. Ammo bu respublika monarxiyaning bir atrebutlaridan xoli emas edi.

Gollandiya bosh provintsial shtatlari ham va boshqa birlashgan provintsiyalar shtatlari ham bir xovuch boylarning manfaatlarini savdo, manfaktura burjuaziyasi, moliya-sudxur burjuaziyasining va u bilan bog`langan yuqori dvoryanlarning manfaatlarini aks ettirar edi. Burjuaziya demokratik revolyutsiyasini asosiy vazifasini bajarmadi. Ya'ni feodalizmni oxirigacha etkaza olmadi.

Nazorat topshiriqlari

- 1.
- 2.

Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.
- 2.

ADABIYOTLAR.

- 1.SEMENOV V.F. O`rta asrlar tarixi. T.1973.
- 2.KURBANGALIEVA R.S. O`rta asrlar tarixidan ukuv metodik qo`llanma. M.1980.
- 3.KRILOV A.A. Srednevekovo`y angliyskiy gorod.M.1949
- 4.SAPRIGIN Yu.M. Istoriya srednix vekov M 1971

9. Mavzu: XU1 asr va XU11 asr boshlarida Angliya. 2-soat

Reja

- 1.XVI asrda Angliyaning iqtisodiy rivojlanishi
- 2.Kapitalistik manufakturaning rivojlanishi. Agrar o'zgarishlarning boshlanishi. Gov tutishlar.
- 3.Gov tutishlarga qarshi Tyudorlarning qonuni.Robert Ket qo'zg'aloni.
- 4.Ingliz reformatsiyasi. Irlandiyaning bosib olinishi.
- 5.XVI asrda ingliz madaniyati.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Darsning maqsadi:

1.XU1 asrda Angliya territoriya jihatidan kichik bir mamlakat edi. Shotlandiya xali Britaniya korolligi sostaviga qo'shilgan edi. Angliya va Irlandiyaning erlari XU11 asrning so'ngi 10 yillariga qadar uncha ko'p emas edi. Irlandiyadagi jamoa yo'lboshchilarining ko'pchiligi ingliz korolining xokimiyati nomigagina tan olardi.

Angliya aholisining soni Frantsiya, Germaniya yoki Ispaniya yoki Ispaniya aholisining sonidan bir necha marta kam edi. Frantsiyaning 15 mln. Germaniyaning 20 mln. Ispaniyaning esa 10 mln aholisi bo'lgani holda, Angliyaning aholisi salkam 3 mln edi. XU11 asrning boshlarida Angliya aholisi 1603 yilda Angliya bilan birlashgan Shotlandiyani hisobga olmaganda 4 mln. kishiga etdi.

XU1 asrda Angliyani shaharlar mamlakati deb bo'lmas edi, undagi aholining ko'pchiligi qishloqlarda yashardi, hatto XU1 asrning oxirida shaharlarda aholining kuni bilan 5 dan bir qismigina yashardi (XU1 asrning boshida esa shahar aholisi mamlakat aholisining faqat 10 % ni tashkil qilardi). Bu jihatdan Angliya Niderlandiyaning tamomila aksi edi, chunki Niderlandiya asosan shaharlar mamlakati bo'lib unda qishloq aholisi ozchilikni tashkil qilardi. Angliya xalq xo'jaligining yuksalishiga va uning kapitalistik asosda qayta qurilishga umuman olganda ikkita tarixiy faktor yordam bergan edi:

1.Buyuk geografik kashfiyotlar: bu kashfiyotlar natijasida Angliya eski dunyo o'rtasidagi yangi jahon yo'llarini markazi bo'lib qolgan hamda o'zining dengiz mamlakati sifatidagi afzalliklardan foydalanish imkoniyatiga faqat endi ega bo'la boshlagan edi.

2.Keyingi o'rta asr oldidagi davrda Angliyada feodalizmning juda buzilib ketganligi-krepostnoy xuquqining ilk bor tugatilganligi, movut sanoatini keng rivojlana boshlanishi, mamlakatning siyosiy jihatdan juda tez markazlashishi va quyi feodal tabaqalari (ritsarlar va jentrilarning) tashkil topayotgan burjuaziya bilan XU11 asrdayoq yaqinlasha boshlaganligidadir.

2.Movut sanoati XU1 asrga kelib Angliyaning Milliy sanoatiga aylandi. Aholiga yarmidan ko'prog'i shu sanoatda band edi desa bo'ladi. Movut to'qish bilan shaharlardagina emas, qishloqlarda ham shug'ullanardilar, chunonchi Sharqiy Angliyada movut shahri, Yorkshirda, Boston shahri, g'arbda Preston va Lankashirdagi Digant, Urta Angliyadagi Nyuberi g'arbiy-janubda Ekzeter shahri va boshqalar movut ishlab chiqaradigan mahalliy sanoat markazlariga aylandi. Movut mahsulotining faqat bir qismigina shahar hunarmandchilik sexlari tomonidan ishlab chiqariladi. Uning ko'proq tarqalgan tashkiliy formasi esa manufaktura edi. XU1 asrning 90-yillarida yozilgan bir ballada shunday deyilgan edi: "Keng va uzun bir xonada 200 ta tikuv dastgohi turibdi, dastgohlarda qator bo'lib 200 kishi ishlamoqda boshqa bir xonada 100 ayol jun titmoqda... 2-xonada 100 qiz jun yigirmoqda... 50 kishi qirquvchi movut qirqmoqda ularning yonida 80 buyoqchi ishlamoqda...". Ammo XU1 asrda Angliyada "Tarqoq" manufakturalarning soni yana ham ko'proq edi. Yana o'sha XU1 asr oxiridagi manbalardan birida juda aniq qilib: "Movutchilar minglab odamlarga ish berar va bu bilan o'zlari juda boyib ketar edilar", deyiladi. Qishloqlarda to'qilgan movut odatda dag'al, oxarlanmagan va buyalmagan bo'lardi. Keyin ularning bir qismi Angliya shaharlariga olinib kelinib ishlov berilar, bir qismi esa yarim fabrikat xolida Niderlandiyaga jo'natilib, flanriya va Brabantda tayyor xolga keltiriladi edi. Chet ellarga chiqariladigan oliy nav va dag'al

movut XU1 asrning 60 yillarida butun ingliz eksportining 80 % ni tashkil qilardi. XU1 asrga kelib Angliyada krepostnoy huquq batamom yo`qoldi.

Bir zamonlar krepostnoy bo`lgan dehqonlar odatdagi huquq bo`yicha yoki o`sha payt Angliyadagi ibora bilan aytganda, manor odati bo`yicha voris bo`lib erga egalik qiluvchi dehqonlarga aylandilar.

Dehqonlar oliy er egalari yoki kapigolderlar deb atalardilar. Chunki ular o`zlariga berilgan er uchun kopiya (manorkal kantselariya qarorgohidan nusxa)ni o`z qo`llarida saqlardilar. Kopigolderlar bir vaqtlar bitimga ko`rsatilgan va qat'iy bo`lib qolgan odatda muvofiq lordlarga muayayn er rentasi to`lamlari lozim edi. Ko`pgina tarixchilarning XU asrni Angliya tarixida ingliz dehqonlari uchun eng omadli, ularning o`ziga xos bir oltin davr deb ataganliklari bejiz emasdir. Ammo XU asr oxirlaridan boshlab ingliz dehqonlari uchun katta xavf, o`zlariga tegishli haydaladigan erlardan, shuningdek jamoat yaylovlaridan ajrash xavfi tug`ila boshladi. Niderlandiyaga chiqariladigan sanoat ishlab chiqarishga ketadigan er narxlarining oshib borishi katta er egalarning mayda bo`laklarga bo`linib ketgan erlarni o`z qo`llariga kiritib olishlariga va bu erlarni ilgorigidek feodal mulki tipida emas, balki burjua tipidagi o`z mulklariga aylantirishlariga undadi. Shu maqsadda lordlar dastaval Angliya sharoitida jamoalarga qarashli ko`pgina erlarni, ya'ni har xil o`rmonlar orasidagi yangiliklar zaxkash erlar va xokazolarni o`z qo`llariga kiritib oldilar.

Bu erlar shu paytgacha lordlar bilan dehqonlar qo`lida edi. Er egalari o`zlari bosib olgan erlarni qoziqlar qoqib, xandaklar kovlab, daraxtlar o`tkazib va boshqa har xil govlar to`sib tutib oldilar. Shuning uchun lordlarning ingliz dehqonlarini erdan maxrum etish jarayoni gov tutish deb ataladi. U aslida sotsial-iqtisodiy voqea edi. Dehqonlarning jamoa yaylovlarida maxrum qilinishi ularning dehqonchiligi va chorvachiligi uchun zarur bo`lgan jamoa yaylovlarini o`z ichiga oluvchi butun qishloq jamoat tuzumini emirgan edi. Lordlar dehqonlarning erlarini tortib olib boshladilar. Nihoyat lordlar dehqonlarni ularga meros qolgan chek erlardan ham haydab chiqara boshladilar. Tortib olingan dalalarni odatda ko`y boqish uchun yaylovlarga aylantirdilar va katta katta narx qo`yib yirik ijarador fermerlarga berardilar. Ba'zan esa ijara ishlarida omilkor lordlarning o`zlari yilqichi soxibkorlarga aylanardilar, ular erlarda bir necha un minglab qo`ylarni boqardilar. Gov tutishlar natijasida butun qishloqlar tamomila yo`q bo`lib ketardi. 1489 yildayoq chiqqan parlament statuslaridan birida bunday deyilgan edi:

“bizning korolligimizda dehqonlarning uylari va butun-butun qishloqlarning bo`m-bo`sh bo`lib qolishi, vayron qilinishi va butunlay buzib yuborilishi tufayli niqoyatda zo`r kulfat kundan-kunga ortib bormoqda. Bir vaqtlar 200 lab kishi g`alla ekib dehqonchilik qilib yurgan erlarda endi 2-3 ta podachi qolgan”.

3. Tyudorlar xukumati (1485-1603) gov tutishlar oqibatida qo`rqib qoldi Ommaviy faqirlik va (xauperizm), qashshoqlik, daydilik mulkdor sinflarning xotirjamligini xavf ostida qoldirdi. Dehqonlarning dentlarga qarshi g`azab va nafrati oshmoqda edi. Gov tutuvchilarga qarshi turli grafiklarda tez-tez mahalliy qo`zg`alonlar bo`la boshladi. Xukumat gov tutishlarning yoyilib ketishi davlat xazinasiga va harbiy ishlarga qam katta zarar keltirishdan xavotir bo`lib qoldi. Xukumat 150 yildan ortiqroq davr ichida (XU asr oxiridan deyarli XU11 asr o`rtalarigacha) gov tutishlarga juda ko`p stutut va ordonanslar chiqardi. Genrix U11ning 1533 yilgi qonuni bir mulkdorning asraydigan kuyi 2000 boshdan ortmasin deb chegaralab qo`ygan edi. 1597 yilda koroleva Elizaveta xukumati dexqonlarning buzib yuborilgan usadbalarini tiklash va barcha gov

tutishlarni tekshirish uchun bir necha marta: 1517, 1548 va 1607 yillarda reviziya tayinlangan edi. Ammo yirik lordlar o'z pomestelarida gov tutish uchun saroydan maxsus ijozat olar va ayrim grafiklardagi tez tutishlarni topshirilgan maydaroq amaldorlarni nazariga ham ilmas edi.

Gov tutishlar munosabati bilan dehqonlar ko'targan qo'zg'alonlardan eng kattasi Norfoygdagi Robert Kett qo'zg'aloni edi. Bu qo'zg'alon Eduard U1 podsholik qilgan davrda, ya'ni 1549 yil yozida, Angliyaning sharqdagi sanoati xiyla taraqqiy qilgan grafiklardan biri bo'lgan Norforgda ko'tarilgan edi. Qo'zg'alon iyun oyining oxirida aka-uka ketlar yashaydigan Uindem degan joyda boshlanib, Norich shahrigacha yoyilib ketgan edi. Ket qo'zg'aloni dehqonlarni Norichga qarab olib bordi, ular 10 iyulda bu erga etib keldilar. Norich shahrining kambag'allari dehqonlarga qo'shildilar. Xammasi bo'lib 20 mintagacha qurolli dehqonlardan iborat bo'lgan qo'zg'alonchilar shahar atrofidagi o'rmon bilan qoplanadigan tepaliklardan biriga lager qurib oldilar. Ular Londonga korol nomiga yuborilgan talablar programmasini tayyorladilar. 29 moddadan iborat bu programmaning bir qancha moddalarida gov tutishlarni to'xtatish va dehqonlarga lordlar jamoalaridan tortib olgan yaylovlardan foydalanish uchun tula huquq berish talab qilingan. Xukumat qo'zg'aloni bostirish uchun yollangan nemis va italyanlardan iborat 15 ming kishilik butun bir armiyani yubordi. Muntazam qismlarga qarshi urush olib borishni bilmagan qo'zg'alonchilarni yirik lord-graf Uorvik qo'mondonligi ostidagi hukumat qo'shinlari tormor qildi. Norich yonidagi Dyussendel vodiysidagi jang 1549 yilning 27 avgustida bo'lgan edi. Asr olingan Robert va Vilyam Kett osib o'ldirildi. Jazolab o'ldirilgan qo'zg'alonchilarning soni 300 dan ortiqroq edi.

4. Ingliz hukumati reformatsiyaga avval qaragan edi. Yoshligida yaxshigina maxsus diniy ta'lim ko'rgan Genrix U11 Lyutterga qarshi munoazarada ham shaxsan ishtirok qilgan edi. U 1521 yil noyabrda yozgan Etti sirning himoyanomasi degan nanfelitni Rimga papa nomiga yuborgan edi. Genrix U111 Ekatirina Arigonskayaga uylangach Karl U bilan dinastik bog'lanish tufayli, avval boshda Frantsiyaga qarshi uyushtirilgan Kooalitsiyada ham qatnashgan edi.

Genrix U111 ning xotinini quyishi o'zgarishga rasmiy bahona bo'ldi. U xotinini qo'yib yubormoqchi bo'lib, Rimga murojatt qildi, chunki katolik qonunlariga muvofiq ajralishni papa rasmiylashtirishi kerak edi. Ekatirina Karl U ga xola bo'lganligi uchun asosan shu vaj bilan papa bu ajralishga ruxsat berishdan bosh tortdi. Chunki Karl U 1527 yildan keyin Rimga xujayin bo'lib qolgan papa esa tamomila uning ixtiyorida edi. Korolning xotinidan ajralishi papaning ruxsatisiz Angliyada rasmiylashtirildi (1553 yil). Shundan keyin Genrix U111 avval korolevaning freylinasi bo'lgan Anna Boleynaga uylandi. Papa siyosatidan g'azabga kelgan Genrix U111 30-yil o'rtalarida Rim bilan aloqasini butunlay uzdi. 1534 yilda tuzilgan Suprematiya to'g'risidagi akt bu jixatdan muxim qadam edi. Unga binoan korol ingliz cherkovining bosh rahbari deb e'lon qilindi. Shunday qilib, ingliz cherkovi katolitsizm bilan protestantlik o'rtasidagi bir vaziyatni egalladi. Genrix U111 o'lgandan keyin uning yosh qolgan o'g'li Eduard 6 korol bo'ldi. Uning davrida korollikning vasiysi va

reganti (Protectori) avval boshda yosh korolning tog'asi gertsog Eduard Seymur Bomertsel, so'ngra 1549 yildagi qo'zg'alonni bostirgan Somertsetni xokimiyat tepasidan olib tashlangan graf Uorvig va vasiy Reygant o'ldi. Har ikki Regent ham protestantlar partiyasiga mansub edi. Ular davrida Anglichan cherkovi protestantsizmni qit'adagi formalariga bir qadar yaqinlashib qoldi. Ammo Eduard U1 o'lganidan keyin uning o'rniga Genrix U111 ning Ekatorina Aragonskayadan tug'ilgan qizi Mariya Tyudor taxtga o'tirdi. Saroyga nisbatan katoliklari oppozitsiyasi muhitda tarbiyalangan Mariya ko'proq g'arb bilan shimolning xiyla qoloq okruglaridagi ingliz dvoryanlarining ba'zi bir qismidan madad topgan katoliklar partiyasiga boshchilik qildi. Undan tashqari u ona tomon qarindoshi, impan koroli Filipp 11 ga erga tegdi. Filipp 11 XU1 asrning ikkinchi yarmidagi katolik reaksiyasining eng fonatik arboblardan biri edi. Mariya ispanlar madadiga tayanib, Angliyada katolizmni tikladi va protestantlarni qattiq tayoq ostiga oldi. Protestantlar Mariyani shafqatsizligi uchun qonho'r deb atadilar. Ammo Mariya Tyudor uzoq vaqt korollik qilmadi. U 1558 yilda o'ldi. Ingliz zodogonlari orasidagi protestantlar ustun chiqib, Genrix U111 ning Anna Boleyndan bo'lgan qizi Elizaveta 1 ni koroleva qilib quydilar, u XU1 asrning butun ikkinchi yarmida podsholik qildi (1558-1603).

XU1 asrning ikkinchi yarmida Angliya qo'shni Irlandiyaga o'z tazyiqini keskin kuchaytirdi. Irlandiyaning Dublin shahri bilan sharqiy soxillari XU1 asrning ikkinchi yarmidayoq birinchi marta zabt etilgan edi. Shundan keyingi asrlarda orolning boshqa rayonlarida ham ingliz xukumatining ta'siri kengaydi. Inglizlarning Irlandiyaga kirib borishi uzoq vaqtgacha etarli darajada chuqur bo'lmagan edi. Ko'chib kelgan inglizlarning ikkinchi uchinchi kunidayoq irland urf-odatlarini va tilini to'la o'zlashtirib olib, shu tarzda maxalliy axoli bilan qo'shib ketardi. Chegaralari mustaxkamlangan va kuplab ingliz garnizolari joylashgan torgin sharqiy polssada (Pel deb ataladigan joyda) ingliz feodallari va savdogari o'zlarining bir muncha mustahkam tutib, mahalliy irland axolisidan ekanligini saqlab qoldilar. Va xatto buni ta'kidlab ko'rsatdilar. Dastlabki Tyudorlar, Genrix U11 va Genrix U111 davridayoq Irlandiyada ingliz xukumatini ta'sir kuchaya boshlagan edi. Xususan Genrix U111 birinchi marta Irlandiya koroli titulini qabul qildi. Irlandiyada ingliz xukmronligini yanada mustahkamlashda reformatsiya katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu erda reformatsiya ayniqsa zo'ravonlik usullari bilan hamda Irlandiya cherkov monastir erlarini ommaviy tarzda sekulizatsiya qilish bilan o'tkazilgan edi. Elizaveta xukmronlik qilgan davrning ayniqsa ikkinchi yarmida va oxirida erlar ko'plab miqdorda shu tarzda musodara qilindi. Olsterda shan O, neyl (1559-1567), Mensterda Desmond (1579-1583) hamda yana Olsterda graflardan Tiron bilan Firvonel rahbarligida ro'y bergan Irlandiya qo'zg'alonlari bostirilgani natijasida yana shunday ishlar qilindi. Inglizlar xukumati Irlandiyada jami 1300000 akr xajmdagi juda katta er maydoni musodara qilindi. Irlandiyaning bo'ysindirilishi va talanishi Angliyaning shundan keyingi tarixi uchun

katta sotsial-iqtisodiy oqibatlariga ega bo'ldi. Irlandiya Angliyaning mustamlakasiga aylanib, u erga ingliz movuti va boshqa sanoat mahsulotlari olib boriladi hamda u erda Angliyaga g'alla, chorva mollari, jun va boshqa xujalik mahsulotlari keltiriladi. Angliya Lend Lordizmi o'sha paytda ingliz dvoryanlari har qanday usullar bilan (gov tutish, sekulyarizatsiya, va shu singari usullar bilan) kengaytirilgan va Angliyaning o'zida to'la mulkiga aylantirilgan erlarga qo'shimcha tarzda Irlandiyani o'zining iqtisodiy bazasiga aylantirdi.

5.XU1 asr Angliya tarixida kapitalizmning tug'ilish asri bo'lish bilan birga ayni vaqtda ingliz millati shakllanishning davom etishi va ingliz madaniyatining g'oyat gullagan davri ham edi. XU1 asrda ingliz adabiyoti bilan ingliz teatri g'oyat gullab yashnadi.

Ilk ingliz gummanizmi adabiyotining eng yorqin namoyondasi mashhur Tomas Mordir (1478-1535). U o'zining Utopiya nomli (1516) klassik asarida avvalo Angliyadagi dastlabki jamg'arilish davrining sotsial ziddiyatlarini analiz qilib berdi. U bilan g'arbiy Evropa utonik sotsializmi oqimiga asos soldi. Bu oqim bundan keyingi asrlarda rivojlana bordi. Ilmiy sotsializm elementlarini tayyorlab berdi. Erazm Proterdamskiyning betamizlik madxiyasi degan asari kabi Morning utopiyasi xam gummanistik adabiyotning eng mashhur va eng ko'p tarqalgan yodgorliklardandir. Utopiya xali asli lotin tilida yozilgan bo'lib, keyinchalik Evropaning hamma tillariga tarjima qilingan va dunyo adabiyotini hamma baxramand bo'lgan asarlardandir. 16 asrning ikkinchi yarmida Elizabetta davrida koroleva va saroydagi bir qancha katta dvoryanlar xomiylik qilgan ingliz teatri katta rivoj topdi. Vilyam Shekspir 1564-1616 jahonda shuhrat qozongan buyuk ingliz dramaturgi edi. Qisman tarixiy va qisman o'z zamonasining maishiy temalarida yozilgan 10 tacha drama, tragediya va komediyalarni avtori bo'lgan Shekspir o'z asarlarida feodalizmning kapitalizmga o'tish davridagi Angliyani xiyla tula tasvir etib berdi. Uning pessalaridagi kahramonlar uyg'onish davrining qahramonlik xarakteriga ega bo'lgan g'oyat extirosli kishilardir. Gamlet, Otello, Romeo va Juletta, Qirol Lir va boshqalar butun dunyodagi teatrlarning repertuarlarida maxkum o'rin olgan. XU1 asrdagi yana bir atoqli dramaturg Kristofer Marlo (1564-1592) bo'lib, bir qancha yirik tragediyalar-Temurlang, Favust, Qirol Eduard va Parij qirg'ini uning qalamiga mansubdir. Yoshroq avlod shoir-dramaturglar orasida Ben Jonson aloxida urin tutadi. U Shekspirga qarama-qarshi ularoq ijodiyotida XU1 asr oxiri va XU11 asr boshlarida usib kelayotgan oppozitsiyasini antifeodal va anti absolyut kayfiyatini yanada keskin aks ettirgan edi. Ingliz faylasufi Frentss Bekkon (1561-1626) o'z asarlarni yaratdi. U yangi «Organon» degan ajoyib asarning avtoridir. Bekon Tomas Morning «utopiyasi»dan keyingi utopik asar «Yangi Atlantida»ning ham avtoridir. Bu asar uning umri oxirda yozilgan va vafotidan keyin e'lon qilishgan «Atlantidaning yuksak sanoat texnika darajasi Bekon», «Utopiya» sining asosiy xususiyatini tashkil qiladi.

Nazorat topshiriqlari

- 1.
- 2.

Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.
- 2.

ADABIYOTLAR.

- 1.SEMENOV V.F. O`rta asrlar tarixi. T.1973.
- 2.KURBANGALIEVA R.S. O`rta asrlar tarixidan ukuv metodik qo`llanma. M.1980.

3.KRILOV A.A. Srednevekovo`y angliyskiy gorod.M.1949

4.SAPRIGIN Yu.M. Istoriya srednix vekov M 1971

10. Mavzu:XV1 asrda Frantsiya, Gugenotlarning urushlari. 2-soat

Reja

- 1.Frantsiyaning ijtimoiy iqtisodiy axvoli
- 2.Frantsuz absolyutizmi va Italian urushlari
- 3.Frantsiyadagi uyg`onish va reformatsiya.
- 4.Frantsiyada Gugenotlarning urushlari.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Darsning maqsadi:

1.XU1 asrda Frantsiya G`arbiy Evropada markazlashgan eng yirik davlat edi. Frantsiya iqtisodiy jihatdan Ispaniyaga, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlariga qaraganda ko`proq rivoj topgan edi. Frantsiyadagi sanoatning ba'zi tarmoqlari endi sex formasidan chiqib manufaktura formasiga o`ta boshlagan edi. Aygiksa Puatudagi movut ishlab chiqarish. Breten, Men va Normandiyadagi gazlama ishlab chiqaruvchi korxonalar, Tur, Lion va orleandagi shoyi to`qish manufakturalari ana shunday rivojlanayotgan sanoat korxonalari edi. Frantsiyada balki Evropaning boshqa mamlakatlarida ham mashhur edi. Frantsuzlar yasagan zambaraklar Evropada eng yaxshi zambarak deb e'tirof etilardi. Evropada eng yaxshi zambarak Evropada eng yaxshi zambarak deb e'tirof etilardi. Frantsiya movut va gazlama ishlab chiqarishda Evropadagina emas, xatto Sharqda ham mashhur edi. Sharq bilan bo`ladigan savdoda farang shoyilari alohida o`ringa ega edi. Qolaversa ko`pgina Sharq davlatlarning fuqarolari Evropa deganda Frantsiyani tushunar edilar. Shoyi to`qishning markazi Lion shahri edi. Liondagi shoyi to`qish fabrikalarida 12 ming ishchi ishlar edi. Ishlab chiqarishning o`sib borishi natijasida mamlakatning turli viloyatlari o`rtasida tovar ayriboshlash kuchaydi. O`sha vaqtda Parij shahri Evropada eng katta shahar bo`lib, unda 300 ming kishi yashar edi. Parij o`zining attorlik buyumlari bilan, zargarlik mollari bilan niqoyatda shuhrat qozongan edi. Bundan tashqari Frantsiyada gilam to`qish (Italiyadan uzlashtirilgan) kuzgisozlik, chunki idishlar va mebel ishlab chiqaruvchi manufakturalar ham paydo bo`la boshladi. Frantsiya bu davrda ham O`rta dengiz orqali qizg`in savdo-sotiq ishlari olib bordi. Bu davrda Marsel mamlakatning eng katta porti edi. Frantsuz savdogarlari Marsel porti orqali Turkiya bilan savdo-sotiq qilardi. Shuningdek Frantsiya Ispaniya bilan faol savdo-sotiq ishlarini olib borar edi. Frantsuzlar o`z tovarlarini ispan mustamlakalaridan keltirilgan oltin va kumushlarga ayribosh qilardi. Ispaniya bilan bo`ladigan savdoda Bordo portining o`rni nihoyatda katta edi. Shuningdek Nant, gavr, Laroshel shaharlari ham katta portga aylanib bormoqda edi.

Lion shahrida olib boriladigan savdo-sotiq xalqaro ahamiyatga ega edi va bu

shaharda g`oyat katta pul bozori bor edi. Lion xalqaro savdoda Antiverpen bilan raqobat qilar edi. Frantsiyada aholining ko`pchiligi qishloq xo`jaligi bilan shug`ullanar edi. Frantsuz qishloqlari o`zining feodal qiyofasini saqlab kelmoqda edi. Dehqonlarning ko`pchiligi chinsheviklar ya'ni meros erlariga egalik qiluvchilardan iborat edi.

Frantsiyada qishloq xo`jaligi texnikasining umumiy darajasi past edi. Mayda dehqonlar erga ishlov berish usullarini takomillashtira olmas edi. Shu sababli ham ekinlarning xosildorligi past edi. Ammo shunga qaramasdan dehqonlarning ko`plab soliqlar solinar edi. Jumladan frantsuz dehqoni o`z pomeschiklariga har xil katta kichik to`lovlar berish bilan birga davlatga ham soliq to`lar edi. Dehqonlardan olinadigan soliqlar davlat xarajatlarini asosiy manba edi.

Chunki korol, saroyi, armiya va cherkov g`oyat ko`p mablag` talab qilardi. Frantsuz dehqonlarini pul to`lab krepostnoylikdan qutulishi va 100 yillik urush xonavayronliklari ularni sudxurlardan qarzdor bo`lib qolishiga olib keldi. Qirol yig`ib olgan soliqlarning bir qismini har xadyalari sifatida dvoryanlarga in`om qilar edi. Shuningdek qirol xokimiyati manufakturalarning o`sishi va savdoning jonlanishidan ham dvoryanlar manfaati yo`lida foydalanardi. Shu sababli ham qirol xokimiyati manufakturalarni kupayishi tarafdori edi. Frantsuz burjuaziyasi ham ingliz burjuaziyasi singari manufakturalardagi yollanma ishchilar mehnati va savdo-sotiq hisobiga boyib bordi. Lekin xususiy sanoat va savdoning rivojini sekinlashtirar edi. Shuning uchun ham ko`pgina shaharlik savdogar va sanoatchilar o`z ishlarini yig`ishtirib, katta pul evaziga dvoryanlik unvonini sotib olishga intilardi. Chunki Frantsiyada dvoryan va ruhoniylardan imtiyozli tabaqa sifatida soliq olinmas edi. Shuning uchun ham o`sha zamondagi bir kishi Savdogarlik kasbi bu mamlakatda boshqa har qanday mamlakatdagidan kamroq hurmat qilinadi deb yozgan edi. Burjuaziya deqo`nlarning erlarini va amaldorlik mansabini sotib olinganidan keyin dvoryan degan unvon olishi mumkin edi. Angliyadagi singari frantsuz dvoryanlar dehqonlarning erlarini tortib olish huquqiga ega emas edi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek frantsuz dehqonlari shaxsiy qaramlikdan pul to`lab qo`yilganidek o`zlariga tegishli chek erlarini ham meros mulk sifatida sotib olgan edi. Shu sababli ham frantsuz dehqoni ersiz qolish xavfi ostida emas edi. Lekin shunday bo`lishiga qaramasdan Frantsiya iqtisodiy jihatdan Angliya va Niderlandiyaga qaraganda sekin rivojlanmoqda edi. Frantsiya manufakturalari bu ikki mamlakatdagidek keng tus olmagan edi. Xali 16 asrda Frantsiyada ishlab chiqarishning an'anaviy usulidagi munosabatlari saqlanib qolgan edi.

2. Frantsiyada ishlab chiqarishning feodal usuli va er egalik qiluvchi imtiyozli dvoryanlar tabaqasi saqlanib qolgan bo`lib, absalyutizm davlat tuzumining tabiiy shakli edi. Korol xokimiyatining asosiy tayanchi feodal dvoryanlar sinfi edi. Katolik cherkovi qirolga katta yordam berardi. Shakllanib kelayotgan burjuaziya ham korol xokimiyatining ishonchli ittifoqchisi edi. Bankirlar va shakllanayotgan

burjuaziya qirolining pulga muxtojligidan foydalanib qirolga katta-katta pul qarz berardi. Qirol pulga muxtoj bo'lgan paytlarda ko'plab amaldorlik lavozimlarini joriy qilar va ularni badavlat kishilarga sotar edi. Boylar shu yusinda sudya, prokuror va shahar maslaxatchisi bo'lib olardi.

Qirol pulga muxtoj bo'lib yurgan kezlarda burjuaziya va dvoryanlar biror viloyatdan undirilgan soliqlarni sotib olar va soliqning hamma summasini oldindan xukumatga to'lab qo'yardi. Bir oz vaqt utgach esa soliqlarni xukumatga tulagandan ancha ortiq pul bilan yig'ib olardi. O'rta asrlar oxirida Frantsiyada mansablar sotilar edi.

Yirik burjuaziya o'z manfaatlarini jihatidan korol xokimiyati bilan chambarchas bog'langan edi. Xonavayron bo'lgan dvoryanlarning mol-mulklarigina emas ularning unvonlari ham yirik burjuaziya sotib olib yangi dvoryanlar sinfini tashkil qilmoqda edi. Mayda burjuaziya esa og'ir moliyaviy zulmlar ostida azoblanmoqda edi.

Korol Frantsisk 1 zamonida korol xokimiyati nihoyatda zo'r qudratga ega buldi.

Frantsisk 1 cherkovni o'ziga buysindirardi. Frantsisk 1 general shtatlarni mutlaqo chaqirmay quydi. Frantsisk 1 qonun chiqaruvchi xokimiyat tanxo o'z qo'lida bo'lishi bilar edi. 1527 yilda Parij parlamentining Prezidenti majlisida xozir bo'lgan korolga murojaat qilib Siz qonundan ustun turasiz, sizni qonunlar hech narsaga majbur etolmaydi va umuman sizni biror bir narsaga majbur qila oladigan xokimiyatning uzi yo'q degan edi. Butun markaziy boshqarma ishi korol kengashi qo'lida edi. Italiyadagi siyosiy tarqoqlikdan foydalangan Frantsisk 1 1524 yilda Italiyaga bostirib kirdi. 1525 yilda Paviya shaxri yonidagi jangda Frantsisk 1 birlashgan ispan va german qo'shinlaridan engildi.

Umuman Frantsisk 1 1521-1525, 1527-1529, 1536-1538 va 1542-1544 yillarda italiyaga yurish qildi va urushlar frantsuz feodallari uchun muvaffaqiyatsiz chiqdi. Xatto so'ngi urushlar davrida Gabsburglar koroli Karl 5 frantsiyaga ham bostirib kirdi.

Ammo frantsuz xalqining qattiq qarshiligi oqibatida Frantsiyaga urush qilishdan voz kechdi. 1544 yilda tuzilgan shartnomaga ko'ra ikki tomon ham urushib olgan erlaridan kechdi. Umuman Italyan urushlari 1559 yilda Kato Kambrezida tuzilgan sulh bilan tugadi. Bu sulhga muvofiq Frantsiya koroli Italiyadan tamomila voz kechdi. Sulhga muvofiq Mets, Tul, Lotaringiya viloyatlari Frantsiya o'zining hamma erlarini tamoman birlashtirib, hamma erlariga ega bo'ldi.

3. Italiyaga qilingan urushlar natijasida Frantsuz jamiyati o'sha zamon Evropasida eng go'zal va nafis madaniyat bo'lgan italyan fani va san'ati sevib urgana boshladi. Korol saroyi uyg'onish davri yangi madaniyatning asosiy markazi bo'lib qoldi. Parijdagi Luvr saroyi italyan arxitekturasi usulida o'urildi.

Korolning singlisi Margarita Navarskaya iste'dodli shoira bo'lib, bir qancha adib va rassomlarni o'z oldiga to'pladi.

Antik davr mualliflarining asarlari zo'r berib o'rganila boshladi. Atoqli filolog olim Giyyom Byude qadimgi grek tilidagi asarlarni frantsuz tiliga o'gira boshladi. Soxalistik nazariyalarga yopishib olgan Parij universitetiga qarshi o'laroq yangi tashkil topgan Frantsuz kolleji o'ziga xos gummanizm akademiyasi edi.

Jahonga dong'i ketgan Fransua rable frantsuz gummanizmining namoyondasi edi. Reble o'zining Gargantuya va Pantagryuel nomli romani bilan feodallar jamiyatini qattiq tanqid ostiga oldi.

Reble soxalistikaga qarshi chiqib tabiat va insonni o'rganadigan fan tarafdori bo'lib maydonga chiqdi. Frantsiyadagi reformatsiya gumanizm doirasidan boshlandi. Lefever Etapl 1512 yilda Apostol Pavelning maktublari haqida degan kitob yozdi. Lefevr Lyuterga o'xshab Najot yo'li dindir degan ideyani ilgari surdi. U Tavrotni frantsuz tiliga tarjima qilib reformatsiyani boshlab berdi. Ammo u protestakt

bo'lmadan katolik bo'lib o'ldi.

Afebrning shogirdi Mo shahri episkopi Brison Frantsiyadagi birinchi protestantlar jamoasini tuzdi. Lekin bu erga Lyuter tarafdorlarining ko'plab ko'chib kelishi protestantizmning yoyilishiga xalaqit qildi. Mamlakatning shimolida katoliklarning mavqi'e baland edi. Parijning yirik burjuaziyasi ham katolik dinini qo'llab quvvatlardi. Frantsiyadagi katolik cherkovi papaga tobe' emas edi, u korolga buysunardi. Frantsiyadagi dehqonlar ham katolizmga juda berilgan edi. Qolaversa Frantsiyadagi dvoryanlar ham reformatsiyaga qiziqmasdi.

Frantsisk 1 dastlab protestantlarning xarakatlariga uncha qarshilik qilmadi. Ammo XU1 asrning 30 yillarida korol protestantlarni qattiq ta'qib qila boshladi. 1535 yilda utda kuydirildi va 300 kishi qamaldi. 1540 yilda Frantsiyada inkvizitsiya joriy etildi. 1547 yilda prostentlarni jazolash uchun favqulodda tribunal yangi sud tashkil etildi va unga Utli palata deb nom berildi. 1547 yildan 1550 yilgacha Utli palata protestantlar ustidan 500 ta xukm chiqardi, bundan 60 tasi o'lim jazosi edi. Lekin shaharlarda protestantlarning tarafdorlari ko'proq edi. Protestantlarning Frantsiyadagi doxiysi Kelvin edi. Kelvinchilarni Frantsiyada Gugenotlar (reformatsiya tarafdorlarini bildiradigan nemischa so'z) deb atardi.

Gugenotlarni o'rta va mayda dvoryanlar qo'llab quvvatlar. Ular Kelvinizmni sof din deb e'tirof etar. Katolik dinini esa korol va Parij dini deb bilardi. Gugenotlarning cherkov tashkiloti korol xokimiyatiga qarshi kurashda aristokratlarga qurol bo'lishini inobatga olib ayrim provintsiyalardagi dvoryanlar ham gugenotlarga qo'shildi.

4.Frantsisk 1ning o'g'li Genrix 11 vafotidan so'ng Karl 1X, Genrix 111 va Frantsisk 11 lar davrida feodal guruxlarning fitna nayranglari avj oldi.

Frantsisk 11 davrida saroyda Lotorigiyalik feodal Gizlar etakchilik qildi.

Nazorat topshiriqlari

- 1.
- 2.

Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.
- 2.

ADABIYOTLAR.

- 1.SEMENOV V.F. O`rta asrlar tarixi. T.1973.
- 2.KURBANGALIEVA R.S. O`rta asrlar tarixidan ukuv metodik qo`llanma. M.1980.
- 3.KRILOV A.A. Srednevekovo`y angliyskiy gorod.M.1949
- 4.SAPRIGIN Yu.M. Istoriya srednix vekov M 1971

Mundarija

So`z boshi.....	3
Ishchi dastur	4
Reyting ishlanma va baholash mezoni.....	12
Ma`ruzalar kursi.....	14
O`zbekiston tarixi fani predmeti, nazariy-metodologik asoslari va uni o`rganishning ahamiyati.....	14
Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasi o`choqlaridan biri.....	20
O`zbek xalqining etnik shakllanishi.....	27
O`zbek davlatchiligi, uning poydevori va taraqqiyot bosqichlari. Milliy davlatchilik qurilishi tajribasi.....	32
Markaziy Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg`onish davri. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo`shgan hissalari (VIII-XII, XVI-XV).....	37
Amir Temur davlati. Temur tuzuklari.....	44
Turkistonning xonliklarga bo`linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.....	53
Chor Rossiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosa..	58
Chorizm istibdodiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy ozodlik kurashi. Jadidchilik.....	63

СОДЕРЖАНИЕ

Вступительное слово.....	3
Рабочая учебная программа и календарно-тематический план	4
Рейтинговая разработка и критерии оценки знаний студентов.....	12
Курс лекций.....	14
Предмет истории Узбекистана, его теоретические и методологические основы и важность его изучения.....	14
Центральная Азия один из очагов зарождения мировой цивилизации...	20
Этническое формирование узбекского народа.....	27
Узбекская государственность, её основы и этапы развития. Опыт построения национальной государственности.....	32
Период Возрождения в жизни народов Центральной Азии. Вклад предков в мировую цивилизацию (VIII-XIII, XIV-XV вв.)	37
Государство Эмира Тимура. Уложения Тимура.....	44
Распад Туркестана на ханства, его причины и последствия.....	53
Колониальная политика царской России в Туркестане.....	58
Национально-освободительная борьба народов Туркестана против гнета царизма.....	63

CONTENTS

Preface.....	3
Introduction.....	4
Rating and assessment.....	12
Course lectures.....	14
The subject of the History of Uzbekistan, its theoretical-methodological foundation and the role of its studying.....	14
Central Asia is one of the hearth of mankind civilization.....	20
Ethnic formation of Uzbek people.....	27
Governing in Uzbekistan, its foundation and developing stages. The experience of Composition national governing.....	32
The revival period in the life of the pewople Central Asia	

Investment, nested our ancestors in the world civilization (VII-XIII, XIV-XV century).....	37
Amir Temurs state. Temurs constitutions.....	44
Disintegration of Turkestan into khanate, its reason and aftermath.....	53
Colloform politics imperial Russia in Turkestan.....	58
National-emancipatory fight the people of Turkestan anti oppressive imperia.....	63